Ch.B. NORMURODOV, Sh.A. MENGLIYEV



PHP7 Dasturlash tili

Termiz-2020

UDK 004.43
BBK 25.253.3

PHP7 dasturlash tili. O‘quv qo‘llanma. Ch.B. Normurodov, Sh.A. Mengliyev. – Termiz: “Xamidi xususiy firmasi”, 2020. – 218 bet.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘iga asosan chop etildi.

Taqrizchilar: **M.M. Aripov** – f.-m.f.d., professor, O‘zbekiston Milliy universiteti “Amaliy matematika va kompyuter tahlil” kafedrasi mudiri;

M. Mirsaburov – f.-m.f.d., professor, Termiz davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrasi mudiri.

Respublikamizda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llashni amalga oshirish yuqori malakali dasturchilarni tayyorlash masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Shu maqsadda tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma 5330200 – “Informatika va axborot texnologiyalari”(dasturiy ta’minot) ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Veb dasturlash” fanini o‘qitishga mo‘ljallangan, xuddi shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanmadan 5130200 - “Amaliy matematika va informatika”, 5110700 - “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishlari va 5A130202 - “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” mutaxasissisligi talabalariga “Veb dizayn”, “PHP veb dasturlash tili”, “Dasturlash tillari”, “Dasturlash asoslari” va “Yuqori bosqichli algoritmik tillar” fanlarini o‘tishga, hamda qo‘llanmadan PHP7 tilida dasturlash ko‘nikmalariga ilgaridan ega bo‘lmagan turli sohada faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin. Qo‘llanmada hozirgi kunda dunyoda keng miqyosida qo‘llanilayotgan PHP7 dasturlash tili ommabop tarzda bayon qilingan, unda foydali maslahatlar, ko‘plab misol va masalalar, hamda ularning PHP7 tilidagi dasturlari keltirilgan. O‘quv qo‘llanma nafaqat yuqorida ta’kidlangan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislik talabalari, balki o‘z faoliyatlari doirasida PHP7 tilidan foydalanuvchi tadqiqotchilar hamda tilni mustaqil o‘rganuvchilar uchun foydali manba vazifasini o‘taydi.

Широкое применение информационно – коммуникационных технологий в Республике Узбекистан требует подготовки высококвалифицированных программистов. Подготовленное с этой целью данное учебное пособие предназначено для студентов образовательных направлений образования 5330220 – «Информатика и информационные технологии»(программное обеспечение) по проведенаю предмета «Веб программирование», а также данное учебное пособие является полезным источником для студентов по направлениям образование 5130200 – «Прикладная математика и информатика», 5110700 – «Методика обучения информатике» и специальности 5A130202 – «Прикладная математика и информационные технологии» по предметам «Веб дизайн», «Язык веб программирования PHP», «Языки программирования», «Основы программирования» и «Алгоритмические языка высокого уровня». Также данное учебное пособие будет полезным для исследователей разных отраслей не имеющих навыков программирования. В учебном пособие популярно изложен язык программирования PHP 7, который широко применяется во всём мире. В пособии даны полезные советы, многочисленные примеры и задачи с кодами для них на языке PHP 7. Также пособие станет полезным источником для исследователей использующих в сфере своей деятельности язык PHP 7 и для самостоятельно изучающих данный язык программирования.

The widespread use of information and communication technologies in the Republic of Uzbekistan requires the training of highly qualified programmers. Prepared for this purpose, this tutorial is intended for students in educational areas of education 5330220 - "Informatics and Information Technologies" (software) on the subject "Web programming", and this tutorial is a useful source for students in the areas of education 5130200 - "Applied mathematics and computer science ", 5110700 -" Methods of teaching computer science "and specialty 5A130202 -" Applied mathematics and information technology "in the subjects" Web design "," PHP web programming language "," Programming languages "," Programming basics "and" Algorithmic languages high level". Also, this tutorial will be useful for researchers from different industries who do not have programming skills. The tutorial popularly describes the PHP 7 programming language, which is widely used throughout the world. The manual contains useful tips, numerous examples and tasks with codes for them in PHP 7. Also, the manual will become a useful source for researchers using PHP 7 in their field and for those who independently study this programming language.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 3 aprel kuni yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin – qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o‘z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Yig‘ilishda aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil yanvar oyida ilgari surilgan beshta tashabbusidan uchinchi tashabbusida aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora – tadbirlariga oid dasturi doirasida 2019 – 2020 yillarda tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o‘quv markazi tashkil etish va ularda bepul ta’lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob’ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash ko‘zda tutilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2019 yilning 19 mart kuni bo‘lib o‘tgan Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishini oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risidagi videoselektorda respublika viloyatlarining barcha shahar va tumanlarida “Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari”ni tashkil etish belgilab berilgan.

2019 yilning 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Inha universitetida “Bir Million O‘zbek Dasturchilar” deb nomlangan loyiha ishga tushurildi. Yuqorida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo‘yilgan masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy o‘quv adabiyotlar bazasini yaratish talab etiladi. Bu o‘z navbatida veb – sahifalar yaratish istagida bo‘lgan yosh dasturchilar uchun o‘zbek tilida nashr etilgan o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Respublikamiz oliy ta’lim nuassasalarida fizika-matematika fanlari doktori, professor M. Aripov rahbarligida, S. Dottoev, M. Fayziyevalar bilan hammualliflikda 2013 yilda nashr etilgan “Veb texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. Ushbu qo‘llanmada PHP tilining beshinchi versiyasigacha bo‘lgan ma’lumotlar to‘liq yoritilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma atigi 500 nusxada chop etilgan bo‘lib, u bugungi kunda tilni o‘rganuvchilar ehtiyojini to‘liq qanoatlantira olmaydi. Bundan tashqari PHP tili doimiy rivojlanish bosqichini boshdan kechirib, uning yangi oltinchi va ettinchi versiyalari tobora keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli, yuqorida keltirilgan o‘quv qo‘llanmaning mantiqiy davomi bo‘lgan PHP tilining so‘ngi versiyalarini o‘z ichiga olgan yangi o‘quv qo‘llanma yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

PHP7 veb – dasturlash tili bo‘yicha o‘zbek tilidagi adabiyotlar etarli darajada emasligi, ko‘pgina foydalanuvchilarning ushbu tilda dastur tuzishlariga to‘sqinlik

qilmoqda. Shu sababli, keng doiradagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan, tushunarli tilda yozilgan o‘quv qo‘llanmalarga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Termiz davlat universiteti “Amaliy matematika va informatika”, “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishlari, hamda “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” mutaxasisissligi talabalariga “Veb dizayn”, “PHP veb dasturlash tili”, “Dasturlash tillari”, “Dasturlash asoslari” va “Yuqori bosqichli algoritmik tillar” fanilarida “PHP7 veb dasturlash tili” ni o‘tishga mo‘ljallab yozilgan bo‘lib, unda ko‘pgina amaliy xarakterga ega bo‘lgan – dasturiy kodlar va misollarning PHP7 tilida tugallangan dasturlari keltirilgan. O‘quv qo‘llanma uni o‘zlashtirish uchun maxsus bilimlarni talab qilmaydigan ketma – ketlikda bayon qilingan, bunda asosiy va yagona talab bu HTML bilan tanish bo‘lishdan iborat.

Zamonaviy PHP7 – juda moslashuvchan til bo‘lib, unda ixtiyoriy murakkablik Facebook, Vkontakte, Badoo, Wikipedia da veb – ilovalar yaratish mumkin, ularning barchasida PHP7 dan foydalanadilar. PHP7 tilining samaradorligi PHP ning ilgarigi 5 va 6 versiyalariga nisbatan ikki marta oshdi. Hozirda PHP7 tili o‘zining jadal rivojlanish va yaxshilanish bosqichini kechirmoqda, u ish beruvchilar uchun eng ehtiyojmand til bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, ushbu tilning yirik hamjamiyati va sifatli maxsus xujjatlari to‘plami mavjud bo‘lib, ular ko‘pgina tillarga tarjima qilingan. PHP7 tilida dasturlovchilar ixtiyorida Composer va Packagist menedjer paketlari mavjud bo‘lib, ularda 120 mingdan ortiq paketlar joylashgan. 2018 yilning noyabr oyida ushbu to‘plamdan 502 million paketlar o‘rnatmasi ishlab chiqilgan.

PHP7 o‘z - o‘zidan ishlamaydi. Foydalanuvchi bilan ishlash uchun PHP veb – serverga o‘rnatilgan bo‘lishi lozim, masalan, Nginx yoki Apache orqali. Foydalanuvchi o‘z so‘rovini veb – serverga HTTP protokoli bo‘yicha jo‘natadi. Veb – server faylning qaysi tiliga murojaat qilinganligini aniqlaydi va ushbu fayl .php kengaytmaga ega bo‘lsa, u holda veb – server so‘rovni qayta ishlash uchun PHP tili interpretatoriga jo‘natadi, so‘rov bajariladi, u bayt – kodga aylantiriladi va natija veb – serverga qaytariladi. Veb – server shakllantirilgan natijani foydalanuvchiga uzatadi. Ushbu natija, qoida bo‘yicha dinamik generatsiya qilingan HTML – sahifadan iborat bo‘ladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oltita bobdan iborat bo‘lib:

- I BOB. PHP7 TILI VA UNING DASTURLASH MUHITI
- II BOB. PHP7 DA OPERATORLAR VA ULAR BILAN ISHLASH
- III BOB. PHP7 DA TARMOQLANUVCHI OPERATORLAR
- IV BOB. PHP7 DA TAKRORLASH OPERATORLARI
- V BOB. PHP7 DA FUNKSIYALAR
- VI. BOB. PHP7 DA MATNLAR BILAN ISHLASH

Har bir bob yakunida 20 tadan misol va masalalarning PHP7 tilidagi dasturlari keltirilgan hamda talabalar mustaqil ishlashlari uchun 20 tadan topshiriqlar berilgan.

I. BOB. PHP7 TILI VA UNING DASTURLASH MUHITI

1.1 PHP7 TILI TARIXI

Bugungi kunda maksimal darajada foydalanuvchilarni o‘ziga jalb etadigan zamonaviy veb-saytlarning ahamiyati katta bo‘lib, ularni yaratish jarayoni o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Internet uchun dasturlashda o’zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan vebga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga PHP7 tili yorqin misol bo‘la oladi.

PHP nima?

PHP- keng miqyosda qo‘llaniladigan universal stsenariy tili bo‘lib, u ayniqsa veb-ishlanmalarga mo‘ljallangan va HTML –kodda taqbiq etilishi mumkin. Ushbu til dasturchi Rasmus Lerdorf tomonidan shaxsiy veb saytini qo‘llab-quvvatlash maqsadida stenariylar to‘plami ko‘rinishida yaratilgan. Bu tilning birinchi 'Personal Home Page Tools' (PHP Tools) deb atadigan 1.0 versiyasi 1995 yil 8 iyunda e’lon qilingan. Tilning uskunalar to‘plami 1997 yilda PHP 2.0 versiyasi chiqishi bilan yanada kengaytirildi, C-realizatsiyali ikkinchi versiyasi, butun dunyo bo‘yicha bir necha ming muxlislarga ega hamda, taxminan 50000 ta domenga o‘rnatilgan bo‘lib bu barcha Internet domenlarning 1% tashkil qilar edi. Ko‘p foydalanuvchilar bu loyiha uchun o‘zlarining kod bloklarini taklif qilganlari uchun, u bir kishining loyihasi bo‘lmay qoldi. PHP 2.0 rasmiy ravishda 1997 yil noyabrida chiqarildi. Ungacha u asosan beta-relizlar shaklida mavjud edi. Shundan so‘ng ko‘p o‘tmasdan birinchi alpha PHP 3.0 paydo bo‘ldi.

1998 yilda tilning yana qayta ishlangan PHP 3.0 varianti bugungi PHP ga o‘xshagan birinchi versiyasi paydo bo‘ldi. Andi Gutmans va Zeev Suraski PHP 2.0 tilini o‘zlarining eCommerce-ilovalarini yaratish uchun etarli imkoniyatga ega emas deb topib, uni 1997 yilda to‘la qaytadan yozilgan til sifatida yaratdilar. O‘zaro hamkorlikda, Andi Gutmans, Rasmus Lerdorf va Zeev Suraski PHP 3.0 ni PHP 2.0 tilining rasmiy vorisi sifatida yaratdilar va e’lon qildilar. Natijada PHP 2.0 tilining rivojlanishi to‘xtadi.

PHP 3.0 tilining eng kuchli tomonlaridan biri uni kengaytirish imkoni mavjudligida edi. PHP 3.0 tili foydalanuvchilar uchun har xil ma’lumotlar bazalari, protokol va API larning mustahkam infrastrukturasi, hamda kengaytirish imkoniyatini yaratgani uchun, o‘nlab foydalanuvchilarni yangi kengaygan modullar yaratishga undar edi. Balki, PHP 3.0 ning o‘ta mashxurligi sababi ham ana shundadir. PHP 3.0 ning asosiy xusuiyatlaridan biri ob’ektga yo‘naltirilgan sintaksisdan iboratligidir. PHP 3.0 rasmiy ravishda 1998 yil iyun oyida 9 oylik oshkora testlashdan so‘ng chiqarilgan edi.

1998 yil oxiriga kelib PHP o‘n minglab foydalanuvchilar va yuz minglab Veb-saytlar uchun asos qilib olindi. Eng mashxur bo‘lgan paytida PHP 3.0 Internet Veb-serverlarining taxminan 10% ga o‘rnatilgan edi. 1998 yilning qishida PHP 3.0 rasmiy e’lon qilingandan so‘ng, Andi Gutmans va Zeev Suraski katta amaliy dasturlar bilan ishlashda unumdorligini va PHP kodli bazasi modulligini oshirish maqsadida PHP yadrosini qayta ishlashga kirishdilar. PHP 3.0 da amaliy dasturlar yaratish mumkin, lekin unda murakkab kompleksli amaliy dasturlarga xizmat qilish ko‘zda tutilmagan edi.

Tilning keyingi PHP 4.0 versiyasi 2000 yilda chiqarilib, unda ish unumdorligi, ishonchlilik va keng qamrovliligi yangi 'Zend Engine' (yaratuvchilar nomlari asosida - Zeev va Andi), yadrodan foydalanish evaziga oshirildi. Ancha oshgan unumdorlikdan tashqari, ushbu versiyada PHP 4.0 quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ldi: katta sondagi veb-serverlar, HTTP-sessiyalarni qo‘llash, chiqarishni buferlash, foydalanuvchi o‘zining PHP kodini kiritishi bilan xavfsiz ishlash usullari va tilning turli yangi konstruktsiyalaridan foydalanish.

Tilning PHP 5.0 versiyasi 2004 yilda yaratildi va PHP ni yaratuvchi guruhlarning erkin dasturiy ta’minotini yo‘lga qo‘ydi. Bunda asosiy e’tibor Zend yadroni yangilashga ya’ni (Zend Engine 2) ni yaratishga qaratildi.

PHP 6.0 tilining rejalashtirilayotgan eksperimental versiyasida asosan yunikodni qo‘llab-quvvatlashni tadbiq etish ko‘zda tutilgan edi va bu istiqbolsiz deb topildi. PHP7.0 ning joriy versiyasi 2015 yilda chiqarildi va yadroning oxirgi versiyasi Zend Engine 3 ga asoslangan bo‘lib, u yuqori ish unumdorligini ta’minladi.

PHP tilining oxirgi versiyalarining samaradorligi PHP5 va PHP6 larga nisbatan qariyib 2 marta ortdi, hozirda PHP7 tili jadal rivojlanish va yaxshilanish bosqichini o‘tayapti. Bundan tashqari, tilda juda yirik hamkorlik va sifatli rasmiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular juda ko‘p tillarga tarjima qilingan, jumladan rus tiliga ham. Tilni yaratuvchilar ixtiyorida Composir paketlar menedjiri va repazitoriy Paskagist paketlari to‘plami mavjud bo‘lib, ular 120 dan ortiq paketlarni o‘z ichiga oladi. 2018 yil noyabrda ushbu repozitoriydan 502 millionta paketlar o‘rnatmasi ishlab chiqilgan.

Xozirgi kunda PHP tilidan yuz minglab dasturchilar foydalanadi, u 20 milliondan ortiqroq veb saytlar va 1 milliondan ortiq veb serverlarga o‘rnatilgan.

PHP tilini qulay va funktsional til deb atab bo‘lmaydi, uni dasturchilarning sevimli tili toifasiga ham kiritib bo‘lmaydi, ammo, PHP tilining bitta muhim jihati mavjudki, bu til haqidagi barcha salbiy e’tirozlardan ustun turadi. Shu sababli, PHP tilini tanlash maqsadga muvofiq. Ushbu muhim jihat quyidagidan iborat: WordPress blok-platformasidagi saytlarning internetdagi salmog’i juda katta bo‘lib, WordPress faqat PHP uchun xizmat qiladi. Agarda keltirilgan fakt ham yetarli emas deb hisoblansa, PHP tilining muhimligi haqida boshqa bir faktni keltiramiz. Eng yirik va o‘ta taniqli saytlar o‘z faoliyatini aynan PHP da boshlagan, bunga misol tariqasida FaceBook ni va ommabop dasturlash tili TIOBE ni eslatib o‘tish kifoya. TOP-5 ga eng mashhur dasturlash tillari sifatida quyidagi beshta til kiritilgan: Java, C, C++, Python va Visual Basic.NET. O‘tgan yilda ham yetakchi tillar beshligi deyarli o‘zgarmasdan qoldi, faqatgina Visual Basic.NET o‘rnini C# tili egalladi. 2017 yilda yetakchi tillar beshligini JavaScript yakunlagan bo‘lsa, 2018 yilda PHP egalladi. 2019 yilda PHP7 da ish samaradorligi ikki-uch marta ortdi. PHP tili ekotizimining hozirgi holatini baholashda PHP uchun asosiy paketlar majmuasi – Packagist ni qarash yetarli, u eksponensial ravishda o‘smoqda. Ushbu paketlarning kuniga 25 milliontagacha yuklab oliniyotganligi, PHP tilining ekotizim ekanligidan dalolat beradi. PHP7 tilida ishonchli, yaxshi xizmat ko‘rsatuvchi va sifatli dasturiy ta’minot yaratish mumkin.

Hozirda information bozorda turli ishlab chiqaruvchilarning bir nechta yechimlari (saytlari) mavjud:

Apache server (sayt - apache.org) – bu tarmoqda eng keng tarqalgan va ommabop bepul foydalaniladigan serverdir. U o‘ta ishonchli va moslashuvchan bo‘lib, prosessor resurslariga qat’iy talab qo‘ymaydi va ko‘plab saytlarga xizmat qilish qobiliyatiga ega. Ushbu saytning ilovalari keng spektrdagi operatsion tizimlar uchun yaroqli, ularga misol tariqasida Unix, Linux, Solaris, Mac OS X, Micrasoft Windows va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.Hozirda Apachedan foydalanish ko‘rsatkichi 71% ni tashkil etadi. Ammo, Apache o‘ta murakkab dastur bo‘lib, undan har bir foydalanuvchi erkin foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Denver server (sayt – denwer.ru) saytlar, veb – ilovalar yoki Internet sahifalar bilan ishlashga mo‘ljallangan bepul foydalanadigan serverdir. Ushbu mahsulot soddalashtirilgan ishlash uchun zaruriy distributivlarga ega. Masalan, unga veb – server Apache, berilganlar bazasi va boshqa dasturlar bilan ishlashga mo‘ljallangan PhpMyAdmin va MySql paketlar kiradi. Afsuski, Denver server faqat Windows operatsion sistemasida ishlaydi.

XAMPP server (sayt – www.apachefriends.org/en/xampp.html) – Apachening do‘stlari tomonidan to‘plangan serverlarning maxsus jamlanmasidan iborat. Zaruriy distributivlarning mavjudligi to‘laqonli veb serverni ishga tushirishni ta’minlaydi. Ushbu dastur Windows, Solarif, Mac OC X va Linux tizimlarida ishlaydi. Unda quyidagi afzalliklar mavjud: server foydalanuvchilar uchun sodda interfeysga egaligi bilan mashhur va ko‘pgina dasturchilarning sevimli serveriga aylangan, uning yaratilgan versiyalari tez-tez paydo bo‘ladi, yangilash jarayoni foydalanuvchi uchun sodda va qo‘lay tarzda amalga oshiriladi, qo‘shimcha modullari ham mavjud.

AppServ serveri (sayt – www.appservnetwork.com) – juda yaxshi server bo‘lib, uni osongina o‘rnatish va barcha distributivlarini bir daqiqa ichida ishchi holatga keltirish mumkin. Ushbu serverning birinchi qo‘llanilishi 2001 yilga to‘g‘ri keladi va shundan keyin undan foydalanuvchilar soni har doim ortib bormoqda. AppServning o‘rnatilishi oson, u ayrim va maxsus relizlarga nisbatan turg‘un (stabil) holatda ishlaydi, hamda uning ishonchli ish samaradorligi foydalanuvchi kompyuterida to‘laqonli veb server yaratish imkoniyatini beradi.

VertigoServ serveri (sayt – www.vertrigo.sourceforge.net) – yana bir unchalik yomon bo‘lmagan va local serverga sodda o‘rnatiladigan serverdir. Serverni yig‘ish o‘ta nozik ish bo‘lib, uning ish samaradorligi yaxshi va diskda kam joy egallaydi. Afsuski, u hozircha faqatgina Windows OS da ishlaydi.

Zend Server Community Edition serveri (sayt – www.zend.com) – bu Zend kompaniyasidan bepul server bo‘lib, u veb – ilovalar bilan ishlashga mo‘ljallangan. Foydalanuvchi kompyuterida local serverni tez ishga tushirish uchun barcha zaruriy elementlarga ega.

OpenServer serveri (sayt – www.open-server.ru) bu portative local server bo‘lib, u saytlarni hamda boshqa veb loyihalarni ishlab chiqish va yaratish uchun yuqori funktsionallikka ega. U ko‘p tilli interfeysga ega (jumladan, rus tilida ham) va windows OS da ishlashga mo‘ljallangan. Olinuvchi informatsiya bilan uni tashuvchilar o‘rtasida muloqot o‘rnatilgan. Bu server juda ham yaxshi va Denver serverga muqobil bo‘lgan yomon bovlmagan server.

WampServer server (sayt – www.wampserver.com) – bu ruscha interfeysga (xuddi shuningdek, boshqa tillarga) mo‘ljallangan server. U sodda va tushunarli

menyuga ega, hamda qulay o‘rnatiladi va uni ishchi holatga keltirish deyarli qiyinchiliklar tug‘dirmaydi. Serverni ishchi holatga keltirishni konfiguratsiya fayllariga ta’sir ko‘rsatmasdan amalga oshirish mumkin. Bu o‘z navbatida ishni endi boshlayotgan veb – ustalar uchun juda foydalidir. Server bepul tarqatiladi va faqat windows platformasida ishlaydi. Afsuski, uning portativ versiyasi mavjud emas.

EasyPHP serveri (sayt – www.easyphp.org) – bu ruscha interfeysga ega bo‘lmagan yaxshi jamlanma. Uni jamlash oson, yirik funktsionalga ega emas va asosan unchalik yirik bo‘lmagan loyihalarni testlashtirishga mo‘ljallangan. Unda olinuvchi portativ ma’lumot tashuvchilar bilan ish ko‘rish mumkin. Ushbu server Denver serverga muqobil server bo‘lib, xizmat qiladi.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib o‘tilgan eng mashhur veb – serverlar bo‘lib, ular veb ustalar orasida alohida e’tiborga ega. Ko‘rinib turibdiki, bunda tanlash imkoniyati mavjud. Foydalanuvchi o‘ziga yoqqan serverni yuklab olish va jamlanma tarkibini maxsus saytlardan bilishi mumkin. Server jamlanmasi ma’lumotlarini faqat maxsus saytlardan olish tavsiya etiladi, chunki boshqa maydonlarda ishlamaydigan distributivlar yoki biror – bir viruslar bo‘lishi mumkin.

Php ning mashhurligi nimada?

- PHP tili dastlab foydalanuvchilar uchun sodda va tushunarli bo‘lishidan qat’iy nazar, tajribali dasturchilarga ko‘pgina qo‘shimcha imkoniyatlarni taklif etadi.
- PHP – kod maxsus boshlang‘ich va oxirgi teglardan iborat bo‘lib, ular “PHP rejimiga” kirish/chiqishga imkon beradi, bular o‘z navbatida HTML – hujjatlar ichida ko‘rsatmalarni bajarishni ta’minlaydi.
- PHP – kod veb – serverda amalga oshadi (ya’ni server tomonidan), bundan farqli ravishda JavaScript-kodda esa ishga tushirilayotgan brauzer (ya’ni, mijoz) tomonidan amalga oshiriladi. Mijoz stsenariyning amalga oshishi natijasini oladi, bunda mijoz qanday boshlang‘ich koddan foydalanganilganligini bilmaydi. So‘nggi yillarda server tomonidan amalga oshiriladigan qayta ishlash vaqti “bulut” deb atala boshladi.

Bulut nima?

> Har doim, foydalanuvchi brauzerdagi veb – saytga o‘tishida, u veb – serverdan veb – sahifani so‘raydi va uning javobini HTTP protokoli (qaydnomasi) bo‘yicha qabul qiladi. Agar veb – sahifa PHP – stsenariysiga ega bo‘lsa, veb – server dastlab PHP – harakatga kod javobini veb – brauzerga uzatishdan avval qayta ishlash uchun murojaat qiladi.

Quyidagi maslahatni (tavsiyani) keltirib o‘tamiz HTTP (Hypertext Transfer Protocol – giperteksni uzatish protokoli) universal kommunikatsion stardart bo‘lib, u ixtiyoriy kompyuterning ixtiyoriy veb – serverdan internet orqali o‘z fayliga kirish imkoniyatini beradi.




Keyingi sahifalar interaktiv veb – saytlarni yaratish muhitini qanday tayyorlashni, o‘z shaxsiy kompyuterida quyidagi server texnologiyalarini o‘rnatish yo‘li bilan amalga oshirishni ta’minlaydi:

- Veb – server – OpenServer (open_server_5_2_3_premium yoki open_server_5_2_2_ultimate bepul).
- PHP – harakat –PHP7.0.

1.2. OPENSERVERNI O‘RNATISH QOIDALARI

OpenServer kichik xajmli erkin tarqatiluvchi Windows OS uchun mo‘ljallangan Veb-serverdir. Uni yuklab olish uchun https://ospanel.io/ manziliga kirish kerak. Dasturni o‘rnatish uchun faylni arxivdan chiqarish etarli bo‘ladi (1-rasm). Bunga javoban ekranga chiqarilgan o‘rnatish oynasi ishi tugallanib avtomatik yopiladi.




1-Rasm

So‘ngra dasturni o‘rnatib uni sozlash bosqichiga o‘tiladi. Buning uchun dasturiy ta’minot joylashtirilgan katalog C:\OpenServer ga o‘tiladi. Bu katalog ichida quyidagi yuklovchi fayl va uchta ichki katalog joylashgan:


- Domains – Foydalanuvchi saytlarni saqlash uchun mo‘ljallangan katalog.
- Modules – Katalogida modullarning boshqaruvchi fayllari, ularning ishlashi uchun zarur bo‘lgan kutubxona fayllari va qo‘shimcha fayllar joylashgan.
- Userdata – Foydalanuvchilarning berilgan bazalari, xesh fayllari xamda modul konfiguradsiyasi fayllari saqlanadi.

Windows OS turiga qarab .exe – fayllardan birini ishga tushiramiz, masalan OpenServer86.exe va quyidagi ko‘rinishdagi muloqat oynasi ochiladi (2-rasm).




2-Rasm

Buyruqni tasdiqlagandan so‘ng, kompyuter ekrani quyi qismidagi uskunalar panelida, qizil bayroqcha ko‘rinishidagi yorliq paydo bo‘ladi (3-rasm).




3-Rasm

Ushbu bayroqcha yorlig‘iga sichqoncha o‘ng tugmasini bosilib (Настройка) sozlash bo‘limi tanlanadi (4-rasm).




4-Rasm

Dastur bosh oynasi ekranga chiqariladi (5-rasm).




5-Rasm

Oyna “Модули” bo‘limidan PHP7.0 punkti tanlanadi. So‘ngra “Домен” bo‘limiga o‘tilib “Автопоиск доменов” punkti belgilanadi (6-rasm).



6-Rasm


Oxirida “Сохранить” saqlash tugmasi bosilib sozlashlar oynasini yopamiz.



7-rasm

Faylni OpenServer/domains/localhost/php7 ichki katalogiga bloknot dasturi vositasida index.php nomi bilan hamda UTF-8 kodirovkasida yaratilgan faylni saqlaymiz (7-rasm) va 8-rasmdagi kabi natijaga ega bo`lamiz.

PHP - sahna HTML – u hujjatda shakllantirilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, PHP ham va HTML – kod ham hech bir muammosiz aynan bitta faylda mavjud bo‘lishi yoki saqlanishi mumkin. Bunda asosiysi tadbiq etilayotgan PHP – kod <?php …?> tegi ichida bo‘lishi va u kodni talqin qilish uchun PHP – harakat tomonidan tanlab olinadi. Odatda, PHP – kod HTML – sahifa asosiy qismida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni beradi, so‘ngra u foydalanuvchining veb – brauzeriga uzatiladi.



8-Rasm

1.3. PHP KODLAR VA O‘ZGARMASLAR

PHP dasturlari ikki usulda bajarilishi mumkin: Veb-server tomonidan stsenariy ilovasi va konsol dasturi sifatida. Bizning asosiy maqsadimiz Veb ilovalarni dasturlashdan iborat bo‘lgani uchun asosan birinchi usulni ko‘ramiz.

PHP odatda Internet bilan bog‘liq dasturlar yaratish uchun ishlatiladi. Lekin PHP dan komanda satrlar interpretatori, asosan *nix tizimlarda foydalanish mumkin. Oxirgisi CORBA va COM interfeyslar hamda PHP-GTK kengaytmasi yordamida

amalga oshirilishi mumkin. Bu xolda quyidagi masalalarni yechish imkoniyati paydo bo‘ladi:

1. Interaktiv komanda qatorlari yordamida ilovalar yaratish;
2. Kross-platformali GUI ilovalarni PHP-GTK bibliotekasi yordamida yaratish;
3. Windows va Linux uchun ba’zi masalalarni avtomatlashtirish

Serverga brouzerning murojjat qilishi yordamida php-stsenariylari bajarilishini ko‘rib chiqamiz. Avval borouzer .php kengaytmali sahifani so‘raydi, so‘ngra Veb-server dasturni PHP server mashinadan o‘tkazadi va natijani html-kod shaklida qaytaradi. Agar standart HTML sahifani olib, kengaytmasini .php ga o‘zgartirilsa va PHP server mashinadan o‘tkazilsa, foydalanuvchiga o‘zgartirmasdan qaytaradi. Bu faylga PHP komandani qo‘shish uchun, PHP komandalarni maxsus teglar ichiga olish kerak. Bu teglarning 4 xil shakli mavjud bo‘lib, ixtiyoriysidan foydalanish mumkin:

XML qayta ishlash instruktsiyasi:

```
<?php
   ...
?>
```

SGML qayta ishlash instruktsiyasi:

```
<?
   ...
?>
```

HTML stsenariylarini qayta ishlash instruktsiyasi:

```
<script language = "php">
   ...
</script>
```


ASP uslubidagi instruktsiya:

```
<%
   ...
%>
```

Biz XML yoki SGML uslubiga rioya qilamiz.

Xususan biror blok ichida PHPdan chiqish mumkin, faqat keyinchalik yana uning ichiga kirib kodni tugatish sharti bilan, quyidagi konstruktsiyadan foydalanish mumkin:


```
<?
echo("<p>Assalomu Alekum, PHP7!<p>");
?>
```



PHP da **echo** buyrug‘i Veb – sahifalarda uchraydigan har qanday ma’lumotni (matn, HTML ajratuvchi simvoli, son) chiqarish uchun qo‘llanadi.

PHP tilida izoxlarni joylash uchun bir necha usullar mavjud. Eng soddasi ikkilik slesh (//) dan foydalanish, shundan so‘ng PHP satrlar oxirigacha yozilganlarni o‘tkazib yuboradi. Bundan tashqari (/*…*/) uslubidagi ko‘p qatorli izoxlardan foydalanish mumkin. Bir qatorli izoxlar uchun (#) simvoldan foydalanish qulay.


```
<?php
// izox kiritish
/*
bu ham izox kirish
*/
  echo"<p> Assalomu Alekum, PHP7!</p>";
?>
```



Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, PHP uslubi izoxlari faqat PHP chegaranishlari orasida ta’sir qiladi. Agar PHP bu izoxlar simvollarini chegaranishlari tashqarisida uchratsa, ularni boshqa matn sifatida, html- sahifaga joylashtiradi.

Masalan. Bu izox orqali HTML kodda ko‘rinadi, brouzerda emas -->

```
<?php
  echo "<p> Assalomu Alekum, PHP7!
</p>"; // normal izox
?>
// bu izox brouzerda ko‘rinadi.
<!-- HTML izoxi.
```




PHP da o‘zgaruvchilarni aniqlash dollar (**$**) belgisidan boshlanadi. Bu simvoldan ixtiyoriy sondagi harf, raqam va ostiga chiziq chizish, hamda o‘z simvollari kelishi mumkin, lekin birinchi simvol albatta harf bo‘lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, PHPda o‘zgaruvchilarning nomlari kalit so‘zlardan farqli registrga bog‘liqdir.

PHP da o‘zgaruvchilarni ta’riflanganda ularning tipini oshkor ko‘rsatish shart emas va dastur davomida bitta o‘zgaruvchi har xil tiplarga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zgaruvchi unga qiymat berilganda initsializatsiya qilinadi va dastur bajarilguncha mavjud bo‘ladi, ya’ni toki so‘rov tugamaguncha veb-sahifa xolida saqlanadi. PHP da o‘zgarmaslar **define**() funksiyasi yordamida e’lon qilinadi:

define(o‘zgarmas nomi, qiymati). Bu funksiyaning birinchi parametri – o‘zgarmas nomi, ikkinchisi – uning qiymati. O‘zgarmasdan foydalanilganda nomi bo‘yicha ilova qilinadi:

```
<?
define ('G', '6.672*E-11');
echo "O‘zgarmas G gravitatsion doimiy G=", G;
?>
```



Odatda o‘zgarmaslar nomlari yuqori registr harflari bilan yoziladi.

1.4. PHP DA MA’LUMOTLAR TIPLARI GET VA POST


PHP tilida superglobal deb ataluvchi o‘zgaruvchilar ham ishlatiladi. Ular maxsus shakllantirilgan o‘zgaruvchilar bo‘lib, ixtiyoriy sahnada va ixtiyoriy joyda ularga global ravishda murojaat qilish mumkin.

GLOBALS – assotsiativ massiv bo‘lib, u konteksga mos va sahnaning ixtiyoriy sohasida hozirda aniqlangan barcha o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi.

SERVER – ushbu massiv, xizmatchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, ular sarlavhalar, sahnaga berish va joylashish yo‘li bo‘lib, ular veb server tomonidan yaratiladi. Klient (mijoz) so‘rovi veb-server tomonidan taxlil qilinib, PHP server mashinaga uzatilgandan so‘ng u so‘rovga tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va bajarish davomida murojaat qilish mumkin bo‘lgan bir necha o‘zgaruvchilarni yaratadi.

GET – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular URL – parametrlar yordamida sahnaga beriluvchilardan iborat.


```
<html>
<head>
<meta http-equiv="Content-Type"
content="text/html; charset=utf-8">
<title>PHP da get</title>
</head>
<body>
<form action="get.php" method="get">
<p>Familiyani kiriting:<input name="a"
type="text"</p>
<p>Ismini kiriting:<input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Yuborish"></p>
</form>
</body>
</html>
```



So‘rov satri $QUERY_STRING o‘zgaruvchida saqlanadi va so‘ralgan URL dagi "?" simvoldan keyingi axborotdan iborat. PHP da so‘rov satri & simvollari bo‘yicha alohida elementlarga ajratiladi, va har bir elementda "=" belgisini qidiradi. Agar "=" belgisi topilgan bo‘lsa, tenglik chap tomonidagi simvollardan iborat o‘zgaruvchini yaratadi. Quyidagi formani ko‘ramiz:

POST – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular sahnaga HTTP protocol orqali post metodi bilan uzatiladi.

```
<html>
<head>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
<title>Php da POST</title>
</head>
<body>
<?php
$natija_a=$_POST['a'];
$natija_b=$_POST['b'];
echo "<h1>Familiya: $natija_a<br> Ismi: $natija_b</h1>";
?>
<form action="post.php" method="post">
<p>Familiyani kiriting:<input name="a" type="text"</p>
<p>Ismini kiriting:<input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit" value="Yuborish"></p>
</form>
</body>
</html>
```



o‘zgaruvchilarning guruhi yaratilib, interpretatsiya qilinadi va $HTTP_POST_VARS massivga joylashtiriladi.

FILES – elementlarning assostiativ massivi bo‘lib, ular sahnaga HTTP protocol orqali POST metodi bilan yuklanadi.

COOKIE – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular foydalanuvchi kompyuteriga cookie fayllardan HTTP protokoli orqali sahnaga beriladi.

SESSION – bu assotsiativ massiv bo‘lib, u foydalanuvchi foydalanayotgan vaqtda (vaqt sessiyasida) veb saytdagi har bir sahnaga murojaat qilish imkoniyatini beradi.

REQUEST – assotsiativ massiv bo‘lib, ular ushbu tipdagi o‘zgaruvchining GET va POST larini so‘zsiz o‘zida saqlaydi.

1.5. MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Masala 1. PHP da o‘zingizning “Familiya va Ismingizni” get va post metodi yordamida chiqaring.
Masala 2. PHP da o‘zingizning “**Familiya va Ismingizni**” get va post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.
Masala 3. PHP da o‘zingizning “*Familiya va Ismingizni*” get va post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.
Masala 4. PHP da o‘zingizning “Familiya va Ismingizni” get va post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.
Masala 5. PHP da ushbu gapni “Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman” post metodi yordamida chiqaring.
Masala 6. PHP da ushbu gapni “**Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman**” post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.
Masala 7. PHP da ushbu gapni “*Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman*” post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.
Masala 8. PHP da ushbu gapni “Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman” post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.
Masala 9. PHP da “O’zbekiston kelajagi buyuk davlat!” matnini get va post metodi yordamida chiqaring.
Masala 10. PHP da “*O’zbekiston kelajagi buyuk davlat!*” matnini post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.
Masala 11. PHP da “O’zbekiston kelajagi buyuk davlat!” matnini post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.
Masala 12. PHP da “**O’zbekiston kelajagi buyuk davlat!**” matnini post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.
Masala 13. PHP da O‘zbekinton Respublikasi madhiyasining birinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.
Masala 14. PHP da Respublikamiz madhiyasining ikkinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.
Masala 15. PHP da Respublikamiz madhiyasining uchinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.
Masala 16. PHP da ax+b=0 ifodani kiriting va post metodi yordamida chiqaring.
Masala 17. PHP da *ax+b=0* ifodani kiriting va post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.
Masala 18. PHP da ax+b=0 ifodani kiriting va post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.
Masala 19. PHP da ~~ax+b=0~~ ifodani kiriting va post metodi yordamida o‘rtasiga chizish orqali chiqaring.
Masala 20. PHP da **ax+bx+c=0** ifodani kiriting post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.


II.BOB. PHP DA OPERATORLAR VA ULAR BILAN ISHLASH

2.1. PHP DA MATEMATIK FUNKSIYALAR

PHP ning matematik funksiyalar kutubxonasi trigonometrik hisoblashlar, sonli shakl almashtirishlar va sonli almashtirishlarni bajaradi. Trigonometrik funksiyalar argumentlari radianlarda beriladi, hamda graduslarni radianga va aksincha almashtiruvchi funksiyalar ham mavjud. Matematik operatorlar bilan bir qatorda PHP da ko‘p sonli matematik funksiyalar ham nazarda tutilgan.
Bular quyidagilar:


- abs() - sonning absolyut qiymati.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=abs($x);
echo "abs= $y";
?>
<form action="abs.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- acos() – radianda ifodalangan arkkosinus.
- acosh() - radianda ifodalangan giperbolik arkkosinus.
- asin() - radianda ifodalangan arksinus.
- asinh() - giperbolik arksinus.
- atan() - radianda ifodalangan arktangis.
- atanh() - giperbolik arktanges.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=acos($x);
$y1=acosh($x);
$y2=asin($x);
$y3=asinh($x);
$y4=atan($x);
$y5=atanh($x);
echo "acos= $y, <br> acosh= $y1, <br> asin=
$y2, <br> asinh= $y3, <br> atan= $y4, <br>
atanh= $y3";
?>
<form action="acos.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x" type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- atan2() - arktangens y/x ni, y va x kvadrantlar ishorasi bilan aniqlanuvchi natijaviy kvadrant bilan qaytariladi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$atan2=atan2($x,$y);
echo "atan2= $atan2 ";
?>
<form action="atan2.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- base_convert() - satr ko‘rinida berilgan sonlarni bir sanoq sistemadan boshqa bir sanoq sistemaga o‘tkazadi. Argument o‘rniga quyidagilar quyiladi o‘giriluvchi son, berilgan sanoq sistema, o‘tkaziladigan sanoq sistema.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$base_convert=base_convert($x,$y,$n);
echo "base_convert= $base_convert ";
?>
<form action="base_convert.php"
method="post" >
<b>o‘giriluvchi son=</b><input
name="x" type="text"><br>
<b>sanoq sistema=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b> o‘tkaziladigan sanoq sistema=</b>
<input name="n" type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- bindec() - ikkilik sonni ifadalovchi satrni o‘nlik qiymatga o‘tkazadi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$bindec=bindec($x);
echo "bindec= $bindec";
?>
<form action="bindec.php" method="post"
>
<b>Ikkilik sonni kiriting=</b><input
name="x" type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- ceil() - sonni o‘zidan katta butun songa yaxlitlash.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$ceil=ceil($x);
echo "ceil= $ceil";
?>
<form action="ceil.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- cos() - radianda ifodalangan kosinus.
- cosh() - giperbolik kosinus.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=cos($x);
$y1=cosh($x);
echo "cos= $y, <br> cosh= $y1";
?>
<form action="cos.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- decbin() - o‘nlik sonni ifadalovchi satrni ikkilik qiymatga o‘girish.
- dechex() - o‘nlik sonni ifadalovchi satrni o‘n oltilik qiymatga o‘girish.
- decoct() - o‘nlik sonni ifadalovchi satrni sakkizlik qiymatga o‘girish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=decbin($x);
$y1=dechex($x);
$y2=decoct($x);
echo "Ikkilik= $y <br> o‘n oltilik= $y1
<br> sakkizlik= $y2";
?>
<form action="sanoq.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- deg2rad() – gradus o‘lchovidan radian o‘lchoviga o‘tish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=deg2rad($x);
echo "Radius o‘lchov= $y";
?>
<form action="deg2rad.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- exp() - berilgan sonning eksponentasini hisoblash.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=exp($x);
echo "exp= $y";
?>
<form action="exp.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- floor() - sonni o‘zidan kichik butun songa yaxlitlash.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=floor($x);
echo "floor= $y";
?>
<form action="floor.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- fmod() -ikki son x ni y ga bo‘lgandagi qoldiqni hisoblaydi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$natija=fmod($x,$y);
echo "fmod= $natija";
?>
<form action="fmod.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- getrandmax() – rand() funksiya vositasida olish mumkin bo‘lgan maksimal qiymat.

```
<?php
$y=getrandmax();
echo "getrandmax= $y";
?>
```




- hexdec() - o‘n oltilik sonni ifadalovchi satrni o‘nlik qiymatga o‘girish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$hexdec=hexdec($x);
echo "hexdec= $hexdec";
?>
<form action="hexdec.php"
method="post" >
```




O‘n oltilik sonni kiriting=<input name="x" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"></form>	


- hypot() - to‘g‘ri burchakli uchburchakda ikki katet bo‘yicha gipotenuzani hisoblash.

<?php $a=$_POST['a']; $b=$_POST['b']; $natija=hypot($a,$b); echo "Gipotenuzasi= $natija"; ?> <form action="hypot.php" method="post" > a=<input name="a" type="text"> b=<input name="b" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"></form>	

- is_finite() – berilgan x qiymatning platforma uchun maksimal ekanligini tekshirish.

<?php $x=$_POST['x']; $y=is_finite($x); echo "is_finite= $y"; ?> <form action="is_finite.php" method="post" > x=<input name="x" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"></form>	


- is_infinite() – berilgan x qiymatning platforma uchun cheksiz ekanligini tekshirish.

<?php $x=$_POST['x']; $y=is_infinite($x); echo "is_infinite= $y"; ?>	

```
<form action="is_infinite.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```


- is_nan() – berilgan x qiymatning platforma uchun nan ekanligini tekshirish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=is_nan($x);
echo "is_nan= $y";
?>
<form action="is_nan.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- lcg_value() – 0 va 1 psevdo tasodifiy sonlar generatori.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=lcg_value($x);
echo "lcg_value= $y";
?>
<form action="lcg_value.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- log10() - o‘nlik logarifm.
- log() - natural logarifm.
- log1p() – log(1+x), bunda x ning qiymati nolga yaqin bo‘lganda ham natija aniq chiqadi. log() ning aniqligi etarli bo‘lmaganligi sababli, bu holda shunchaki log(1) ga qaytiladi.

```php
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=log($x);
$y1=log10($x);
$y2=log1p($x);
echo "log= $y<br>log10= $y1<br> log1p= $y2";
?>
<form action="log.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- max() - berilgan x va y sonlarning maksimumi.
- min() - berilgan x va y sonlarning minumimi.

```php
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$max=max($x,$y);
$min=min($x,$y);
echo "maksim= $max <br>
minumi=$min";
?>
<form action="max_min.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- mt_getrandmax() - mt_rand() funksiyasi bilan olinishi mumkin bo‘lgan maksimal qiymat.

```php
<?php
$y=mt_getrandmax();
echo "mt_getrandmax= $y";
?>
```




- mt_rand() – tasodifiy son bo‘lib, u son Tvister metodi bo‘yicha generatsiya qilinadi. Funksiyani qo‘llashdan oldin mt_srand() funksiyasi yordamida boshlang‘ich sonni belgilash lozim.
- mt_srand() – berilgan parametrga mos ravishda tasodifiy sonlar generatori uchun boshlang‘ich qiymatni belgilash. Bunda mt_rand() funksiyasiga murojaat jarayonida turli natijalar olish imkonini beradi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$mt_srand=mt_srand($y);
for ($i=$x; $i<=$y; $i++)
echo  mt_rand($x,$y). "<br> ";
?>
<form action="mt_srand.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- number_format() – sonni formatlaydi. Uning argumenti: formatlanuvchi son, verguldan keyingi raqamlar soni, o‘nlik nuqta o‘rnida foydalaniladi (uni yozish shart emas), mingliklarni chegaralobchi simvol (uni yozish shart emas).

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=number_format(12548*log($x));
echo number_format($y,5,',',' ' ');
?>
<form action="number_format.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- octdec() –sakkizlik sanoq sistemadagi sonni ifadalovchi satrni o‘nlik qiymatga o‘girish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=octdec($x);
echo "O‘nlik sanoq sistema= $y";
?>
<form action="octdec.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- pi() - π sonining qiymatini aniqlaydi.

```
<?php
$y=pi();
echo "Pi ning qiymati= $y";
?>
```




- pow() – x sonini y darajaga ko‘tarish.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$natija=pow($x,$y);
echo "x ni y darajaga ko‘tarish= $natija";
?>
<form action="pow.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```



- rad2deg() -radian o‘lchovdan gradus o‘lchovga o‘tish.


```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=rad2deg(pi()/$x);
echo "rad2deg= $y";
?>
<form action="rad2deg.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
```



```
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```


- round() – x sonini yaxlitlash.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=round($x);
echo "yaxlitlash= $y";
?>
<form action="round.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- sin() - radianda ifodalangan sinus.
- sinh() - radianda ifodalangan geperbolik sinus.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=sin(pi()/$x);
$y1=sinh(pi()/$x);
echo "sin= $y, <br> sinh= $y1";
?>
<form action="sin.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- sqrt() – x sonining kvadrat ildizi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=sqrt($x);
echo "sqrt= $y";
?>
<form action="sqrt.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- rand() - psevdotasodifiy son. Majburiy bo‘lmagan arhumentlar ruxsat berilgan qiymatlar diapazon generatorini aniqlaydi. Ular berilgan tasodifiy son 0 dan rand_max gacha bo‘lgan oraliqdan olinadi. Ushbu funksiyadan foydalanishdan oldin srand() funksiyasi yordamida boshlang‘ich son aniqlanishi lozim.
- srand() - psevdotasodifiy sonlar generatorini inisializatsiyalsh.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$srand=srand($y);
for ($i=$x; $i<=$y; $i++)
echo  rand($x,$y). "<br> ";
?>
<form action="mt_srand.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```



- tan() - radianda ifodalangan tangens
- tanh() - radianda ifodalangan giperbolik tangens.


```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=tan(pi()/$x);
$y1=tanh(pi()/$x);
echo "tan= $y <br> tanh= $y1";
?>
<form action="tan.php" method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```



PHP tilida matematik hisoblashlarni ixtiyoriy aniqlikda olib borishga mo‘ljallangan fuksiyalar mavjud. Ushbu funksiyalarning o‘ziga xosligi razryadli parametrga ega ekanligidir. Razryadlilik – bu operandlar va natijalardagi o‘nlik nuqtalardan keyin joylashgan belgilar miqdori.


- bcadd() – birinchi va ikkinchi argumentlar yig‘indisi. Uchinchi argument – razryadlilik parametri.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$bcadd=bcadd($x,$y,$n);
echo "bcadd= $bcadd ";
?>
<form action="bcadd.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b>n=</b><input name="n"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- bccomp() – sonli taqqoslash. Agar birinchi argument ikkinchisidan katta bo‘lsa, u holda +1 ga qaytiladi. Agar birinchi argument ikkinchisidan kichik bo‘lsa, -1 qaytiladi. Agar argument teng bo‘lsa, 0 ga qaytiladi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$bccomp=bccomp($x,$y,$n);
echo "bccomp= $bccomp ";
?>
<form action="bccomp.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b>n=</b><input name="n"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- bcdiv() – birinchi argumentni ikkinchi argumentga bo‘lgandagi bo‘linma.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$bcdiv=bcdiv($x,$y,$n);
echo "bcdiv= $bcdiv ";
?>
<form action="bcdiv.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b>n=</b><input name="n"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- bcmod() - birinchi argumentni ikkinchi argumentga bo‘lgandagi qoldiq.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$bcmod=bcmod($x,$y);
echo "bcmod= $bcmod ";
?>
<form action="bcmod.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```



- bcmul() - birinchi va ikkinchi argumentlarning ko‘paytmasi.


```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$bcmul=bcmul($x,$y,$n);
echo "bcmul= $bcmul ";
?>
<form action="bcmul.php" method="post"
```



```
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b>n=</b><input name="n"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```


- bcpow() – darajaga ko‘tarish. Argumentlar: asos, daraja ko‘rsatkichi, razryad parametri. Bunda x soni y darajaga ko‘tarib, verguldan keyin ikki xonagacha olinadi.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$n=$_POST['n'];
$bcpow=bcpow($x,$y,$n);
echo "bcpow= $bcpow ";
?>
<form action="bcpow.php" method="post"
>
<b>x=</b><input name="x"
type="text"><br>
<b>y=</b><input name="y"
type="text"><br>
<b>n=</b><input name="n"
type="text"><br>
<input type="Submit" value="Hisoblash">
</form>
```




- bcscale() – standart holda foydalanuvchi razryadli parametrlarining qiymati.

```
<?php
$x=$_POST['x'];
$y=$_POST['y'];
$k1=bcpow($x,$y);
$bcscale=bcscale(2);
$k2=bcpow($x,$y);
echo "k1= $k1<br> k2=$k2";
?>
<form action="bcscale.php"
method="post" >
<b>x=</b><input name="x"
```




type="text"> y=<input name="y" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"> </form>	

- bcsqrt() – sonning kvadrat ildizi.

<?php $x=$_POST['x']; $y=$_POST['y']; $bcsqrt=bcsqrt($x,$y); echo "bcsqrt= $bcsqrt"; ?> <form action="bcsqrt.php" method="post" > x=<input name="x" type="text"> y=<input name="y" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"> </form>	

- bcsub() – birinchi argumentdan ikkinchisini ayirish.

<?php $x=$_POST['x']; $y=$_POST['y']; $n=$_POST['n']; $bcsub=bcsub($x,$y,$n); echo "bcsub= $bcsub "; ?> <form action="bcsub.php" method="post" > x=<input name="x" type="text"> y=<input name="y" type="text"> n=<input name="n" type="text"> <input type="Submit" value="Hisoblash"> </form>	

2.2. PHP DA TIPLARNI E’LON QILISH

PHP tilida turli tipdagi o‘zgaruvchilardan foydalanish mumkin, shu sababli, har bir tipdagi o‘zgaruvchilar qanday tavsiflanishini bilish zarur.


PHP tilida bitta o‘zgaruvchini dastur bajarilishi davomida satr yoki son sifatida ishlatish mumkin. Shu bilan birga PHP tilida o‘zgaruvchilar bilan ishlanganda oshkor ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan asosiy ma’lumotlar tiplari to‘plami mavjud.

Bunday operatorlarni o‘rganishdan avval, ushbu funksiyani o‘rganish maqsadga nuvofiq var_dump(). Bu biror-bir miqdorning qiymatini va tipini chiqarishga imkon beradi.

- **Butun (integer) sonlar** – ular -2147483648 dan 2147483647 gacha ko‘lamdagi kasr bo‘lmagan son bo‘lib, ularda sonning asosi (10 lik), o‘n oltilik (asosi 16-prefiksga ega) yoki sakkizlik (asosi 8-prefiksli) sanoq sistemalar ko‘rsatiladi.

Butun sonlarga misol.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
// Qo‘shish
var_dump($a + $b);
echo "<br>";
// Ayirish
var_dump($a - $b);
echo "<br>";
// Ko‘paytirish
var_dump($a * $b);
echo "<br>";
// Bo‘lish
var_dump($a / $b);
echo "<br>";
// Qoldiqli bo‘lish
var_dump($a % 4);
echo "<br>";
// Darajaga ko‘tarish
var_dump(pow($a,2));
?>
<form action="int.php" method="post">
<p>Birinchi son: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi son: <br><input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



- **Siljuvchi vergulli (float) sonlar** – sonning kompyuterda amalga oshiriladigan eksponentsiol yozuvi. Xuddi shuningdek, “ikkilangan aniqlikga” ega bo‘lgan son ham mavjud.

Haqiqiy songa misol.


```
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
$s= $x/$y;
var_dump($s);
?>
<form action="float.php" method="post">
<p>Birinchi son: <br><input name="x"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi son: <br><input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



- **Satr (string)** – simvollar ketma – ketligidan iborat bo‘lib, unda har bir simvol bir bayt o‘lchamdan, toki maksimal uzunlik 216 gacha bo‘lgan joyni egallaydi. Yakka qavslarga olingan satrlar literallar sifatida qaraladi, ayni paytda ikkilangan qavslar ichidagi satrlar esa (maxsus belgilar, o‘zgaruvchilarning qiymatlari va shu kabilar) sifatida talqin qilinadi.

Belgilarga misol.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$a .= 'Dasturchi!';
var_dump($a);
?>
<form action="string.php" method="post">
<p>Matn kiriting: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



- **Bul (boolean) tipi -** Mantiqiy ifoda bo‘lib, uning qiymati faqat rost (True) yoki yolg‘on (False) dan iborat.


Bul (boolean) tipi misol: Mantiqiy tip True (Rost)=1 yoki True (Rost)=1 qiymat qabul qilganda.

```php
<?php
$x =$_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump($x == $y);
echo "<br>";
//tenglikni tekshirish
var_dump($x === $y);
echo "<br>";
//aynan tenglikni tekshirish
var_dump($x != $y); //tenglikni tekshirish
echo "<br>";
//tenglikni tekshirish
var_dump($x !== $y);
// aynan tenglikni tekshirish
?>
<form action="bul.php" method="post">
<p>Birinchi son: <br><input name="x"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi son: <br><input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Misol 1: Mantiqiy tip True (Rost) yoki True (Rost) qiymat qabul qilganda.

```php
<?php
$x =$_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump($x && $y);
var_dump($x || $y);
var_dump($x xor $y);
?>
<form action="bul1.php" method="post">
<p>Birinchi qiymat: <br><input
name="x" type="text"></p>
<p>Ikkinchi qiymat: <br><input
name="y" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Misol 2: Mantiqiy tip True (Rost) yoki False (Yolg‘on) qiymat qabul qilganda.

```
<?php
$x =$_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump($x && $y);
var_dump($x || $y);
var_dump($x xor $y);
?>
<form action="bul2.php" method="post">
<p>Birinchi qiymat: <br><input
name="x" type="text"></p>
<p>Ikkinchi qiymat: <br><input
name="y" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Misol 3: Mantiqiy tip False (Yolg‘on) yoki True (Rost) qiymat qabul qiladi

```
<?php
$x =$_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump($x && $y);
var_dump($x || $y);
var_dump($x xor $y);
?>
<form action="bul3.php" method="post">
<p>Birinchi qiymat: <br><input name="x"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi qiymat: <br><input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



- **Massiv (array)** – bir nechta qiymatlarning tartiblashtirilgan xaritasi bo‘lib, undagi kalitlar qiymatlarga mos keladi. Kalitlar – bu indeks nomerlari (ular so‘zsiz tushuniladi) yoki aniq ko‘rsatilgan nishonlar.
- **Ob’ekt** – bu berilganlarning xossalarini saqlovchi va berilganlarni qayta ishlash metodlaridan iborat bo‘lgan sinf.
- **Resurs** – tashqi resursga havola bo‘lib, ular maxsus funksiyalar tomonidan yaratiladi va saqlanadi.
- **NULL** – qiymatga ega bo‘lmagan o‘zgaruvchi. Bu o‘zgaruvchi, shakllantirilmagan bo‘ladi (unga hech bir qiymat berilmagan bo‘ladi), agar unga NULL o‘zgarmasi ta’minlangan bo‘lsa yoki unset() funksiyasi yordamida bekor qilinmagan bo‘lsa.

2.3. PHP DA ARIFMETIK, MANTIQIY OPERATORLAR VA ULARNING TADBIQI

Arifmetik amallar va qiymat berish operatori. Berilganlarni qayta ishlash uchun PHP tilida amallarning juda keng majmuasi aniqlangan. Amal - bu qandaydir harakat bo‘lib, u bitta (unar) yoki ikkita (binar) operandlar ustida bajariladi, hisob natijasi uning qaytariluvchi qiymati hisoblanadi. Tayanch arifmetik amallarga qo‘shish (+), ayirish (-), ko‘paytirish (*), bo‘lish (/) va bo‘lish qoldig‘ini olish (%) amallarini keltirish mumkin. Amallar qaytaradigan qiymatlarni o‘zlashtirish uchun qiymat berish amali (=) va uning turli modifikatsiyalari ishlatiladi: qo‘shish, qiymat berish bilan (+); ayirish, qiymat berish bilan (-); ko‘paytirish qiymat berish bilan (*); bo‘lish, qiymat berish bilan (/); bo‘lish qoldig‘ini olish, qiymat berish bilan (%) va boshqalar. Ularning umumiy ko‘rinishlariga to‘xtalamiz.

Razryadli mantiqiy amallar. Dastur tuzish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, odatda qo‘yilgan masalani yechishda biror holat ro‘y berganligini yoki yo‘qligini ifodalash uchun 0 va 1 qiymat qabul qiluvchi bayroqlardan foydalaniladi. Shu maqsadda bir yoki undan ortiq baytli o‘zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Masalan, bool (mantiqiy) tupdagi o‘zgaruvchini shu maqsadda ishlatsa bo‘ladi. Boshqa tomondan, bayroq sifatida baytning razryadlaridan foydalanish ham mumkin. Chunki razryadlar faqat ikkita qiymatni – 0 va 1 sonlarini qabul qiladi. Bir baytda 8 razryad bo‘lgani uchun unda 8 ta bayroqni kodlash imkoniyati mavjud. Quyidagi jadvalda PHP tilida bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar majmuasi keltirilgan.

Bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar


Amallar	Mazmuni
Or yoki **&**	Mantiqiy VA (ko’paytirish)
Xor yoki **|**	Mantiqiy yoki (qo’shish))
And yoki **^**	Istisno qiluvchi YOKI
!	Mantiqiy INKOR (inversiya)

Razryadli mantiqiy amallarning bajarish natijalarini jadval ko‘rinishida ko‘rsatish mumkin.

Razryadli mantiqiy amallarni bajarish natijalari


A	**B**	**A&B**	**A|B**	**A^B**
0	**0**	**0**	**0**	**0**
0	**1**	**0**	**1**	**1**
1	**0**	**0**	**1**	**1**
1	**1**	**1**	**1**	**0**

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
echo($a&$b);
echo"<br>";
echo(($a|$b));
echo"<br>";
echo($a^$b);
 ?>
<form action="misol.php" method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



A	!A
0	1
1	0

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
echo(!$a);
echo"<br>";
echo(!$b);
?>
<form action="inkor.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Yuqorida keltirilgan misol uchun qo‘riqlash tizimini ifodalovchi bir baytli char tupidagi o‘zgaruvchini e’lon qilish mumkin.

Bu guruh operatorlari razryadli operatorlardan farqli mantiqiy (**boolean**) o‘zgaruvchilar bilan ishlaydi va boshqaruvchi konstruktsiyalar:sikllar va shartlarda

ishlatiladi. Mantiqiy o‘zgaruvchilar yoki to‘g‘rirog‘i **Boolean** tipidagi o‘zgaruvchilar faqat ikki qiymatga egalar: **true(rost)** va **false(yolg‘on)**. Ifodalarda **true** va **false** qiymatlarini 1(0 dan farqli ixtiyoriy son) va 0 ga almashtirish mumkin. Bu imkoniyat maxsus **true** va **false** qiymatlariga ega bo‘lmagan php tilining merosidir.


1-masala. A butun soni berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A soni toq son”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
var_dump($a%2==1);
?>
<form action="1-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




2-masala. Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A>2 va B<=3”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
var_dump(($a>2)and($b<=3));
?>
<form action="2-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




3-masala Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A<=B<=C”

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump(($a<=$b)and($b<=$c));
?>
<form action="3-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
```




b= <input name="b" type="text"> c= <input name="c" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

4-masala. Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “B soni A va C sonlari orasida yotadi”.


<?php $a = $_POST['a']; $b = $_POST['b']; $c = $_POST['c']; var_dump(($a<=$b)and($b<=$c)); ?> <form action="3-masala.php" method="post"> a= <input name="a" type="text"> b= <input name="b" type="text"> c= <input name="c" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

5-masala. Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A va B sonlari toq sonlar”.

<?php $a = $_POST['a']; $b = $_POST['b']; var_dump(($a%2==1)and($b%2==1)); ?> <form action="5-masala.php" method="post"> a= <input name="a" type="text"> b= <input name="b" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	


6-masala Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A va B sonlarning faqat bittasi toq son”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
var_dump(($a%2==1)or($b%2==1));
?>
<form action="6-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7-masala Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A, B, C sonlarning har biri musbat”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump(($a>0)and($b>0)and($c>0));
?>
<form action="7-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



8-masala Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A, B, C sonlaridan faqat bittasi musbat son”.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump((($a>0)and($b<0)and($c<0))or(
($a<0)and($b>0)and($c<0))or
(($a<0)and($b<0)and($c>0)));
?>
<form action="8-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
```



```
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


9-masala. Musbat butun son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan son ikki xonali juft son”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
var_dump(($a>9)and($a<100)and($a%2==0));
?>
<form action="9-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




10-masala. Musbat butun son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan son uch xonali toq son”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
var_dump((($a>99)and($a<1000)and($a%2==1)));
?>
<form action="10-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



11-masala. Jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan uchta butun sonlarning hech bo‘lmaganda 2 tasi bir biriga teng”.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump(($a=$b)or($a=$c)or($b=$c));
?>
<form action="11-masala.php"
```



```
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


12-masala. Uch xonali son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Ushbu sonning barcha raqamlari xar xil”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$x=floor($a/100);
 $y=floor($a/10)% 10;
 $z=floor($x%100)%10;
var_dump(($x<>$y)and($x<>$z)and($y<>
$z));
?>
<form action="12-masala.php"
method="post">
<p>Uch xonali sonni kiriting <input
name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




13-masala. A, B, C sonlar berilgan (A soni noldan farqli). $D=B^2-4AC$ diskriminantdan foydalanib, jumlani rostlikka tekshiring: “$Ax^2+Bx+C=0$ kvadrat tenglama haqiqiy ildizga ega”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
$d=pow($b,2)-4*$a*$c;
var_dump(($a<>0)and($d>=0));
?>
<form action="13-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




14-masala. x, y sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Koordinatalari (x,y) bo‘lgan nuqta, koordinata choragining ikkinchisida yotadi”.

```
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump(($x<0)and($y>0));
?>
<form action="14-masala.php"
method="post">
<p>x= <input name="x" type="text"></p>
<p>y= <input name="y" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




15-masala. (x, y), (x1, y1), (x2, y2) sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Koordinatalari (x,y) bo‘lgan nuqta, chap yuqori cho’qqisi (x1,y1) koordinatalarga ega bo‘lgan va o‘ng pastikisi (x2,y2) bo‘lgan, tomonlari esa koordinata o‘qlariga parallel bo’lgan to‘rtburchak ichida yotadi”.

```
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
$x1 = $_POST['x1'];
$y1 = $_POST['y1'];
$x2 = $_POST['x2'];
$y2 = $_POST['y2'];
var_dump(($x>$x1)and($x2>$x))and(($y1>
$y)and($y>$y2));
?>
<form action="15-masala.php"
method="post">
<p>x= <input name="x" type="text"></p>
<p>y= <input name="y" type="text"></p>
<p>x1= <input name="x1"
type="text"></p>
<p>y1= <input name="y1"
type="text"></p>
<p>x2= <input name="x2"
type="text"></p>
<p>y2= <input name="y2"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




16-masala. a, b, c butun sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “a, b, c tomonli uchburchak teng tomonli bo‘ladi”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump(($a=$b)and($a=$c)and($b=$c))
;
?>
<form action="16-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




17-masala. a, b, c butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “a, b, c tomonli uchburchak yasash mumkin”.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
var_dump((($a+$b)>$c)or (($a+$c)>$b)or
(($c+$b)>$a));
?>
<form action="17-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




18-masala. Shaxmat doskasining x, y koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Doskaning chap pastki maydoni (1,1) qoraligini hisobga olib, jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan (x, y) koordinatali maydon oq”.

```
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
var_dump((($x+$y)%2==1));
?>
<form action="18-masala.php"
method="post">
<p>x= <input name="x" type="text"></p>
<p>y= <input name="y" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




19-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Ruh bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi”.

```
<?php
$x1 = $_POST['x1'];
$y1 = $_POST['y1'];
$x2 = $_POST['x2'];
$y2 = $_POST['y2'];
var_dump(($x1=$x2)or($y1=$y2));
?>
<form action="19-masala.php"
method="post">
<p>x1= <input name="x1"
type="text"></p>
<p>y1= <input name="y1"
type="text"></p>
<p>x2= <input name="x2"
type="text"></p>
<p>y2= <input name="y2"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



20-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Ot bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi”.

```
<?php
$x1 = $_POST['x1'];
$y1 = $_POST['y1'];
$x2 = $_POST['x2'];
$y2 = $_POST['y2'];
var_dump((abs($y2-$y1)==2)or(abs($x2-
$x1)==2)and(abs($y2-$y1)==1));
?>
<form action="20-masala.php"
method="post">
<p>x1= <input name="x1"
type="text"></p>
<p>y1= <input name="y1"
type="text"></p>
<p>x2= <input name="x2"
type="text"></p>
<p>y2= <input name="y2"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




2.4. PHP DA CHIZIQLI ALGORITMLAR BILAN ISHLASH

1.1-masala. A va B ikkita haqiqy sonlar berilgan. Ularning yig‘indisi, ayirmasi va ko‘paytmasini hisoblang.

Yechish. a va b sonlar yig‘indisini S, ayirmasini d, ko‘paytmasini k bilan belgilasak, S=a+b, d=a-b, k=a*b formulalar o’rinli bo‘ladi.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$s = $a + $b; $d = $a - $b;
$k = $a * $b;
echo "<p><b>Yig`indi</b> =
$s<br><b>Ayirma</b> =
$d<br><b>Ko`paytma</b> = $k</p>";
?>
<form action="1.1-masala.php"
method="post">
<p>Birinchi son: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi son: <br><input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




1.2-masala. Ikkita musbat son berilgan, bu sonlarning o‘rta arifmetik va o‘rta geometrik qiymatlarini aniqlang.
Yechish. a va b sonlarning o‘rta arifmetik qiymatini c, o‘rta geometrik qiymatini d bilan belgilasak, $c = \frac{a+b}{2}$; $d = \sqrt{a \cdot b}$; formulalar o‘rinli bo‘ladi.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$s = ($a + $b)/2;
$d = sqrt($a * $b);
echo "<p><b>O‘rta arifmetik qiymati
</b> = $s<br><b>O‘rta geometrik
qiymati </b> = $d</p>";
?>
<form action="1.2-masala.php"
method="post">
<p>Birinchi son: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi son: <br><input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




1.3-masala. Tomonlari A va B ga teng to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi va peremetri hisoblang. Yechish. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi $s = a \cdot b$, peremetri $p = 2 \cdot (a + b)$ formulalar yordamida aniqlanadi.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$s = $a * $b;
$p = 2*($a + $b);
echo "<p><b>Yuzi</b> =
$s<br><b>Perimetr</b> = $p</p>";
?>
<form action="1.3-masala.php"
method="post">
<p>Birinchi tomoni: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p>Ikkinchi tomoni: <br><input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.4-masala. R1, R2, R3 uchta qarshiliklar ketma-ket ulangan zanjirning qarshiligini aniqlang. Yechish. Zanjirning umumiy qarshiligini R bilan belgilasak, ketma-ket ulashda $R = R_1 + R_2 + R_3$ formulalar o‘rinli bo‘ladi.


```
<?php
$R1 = $_POST['R1'];
$R2 = $_POST['R2'];
$R3 = $_POST['R3'];
$R = $R1 + $R2+$R3;
echo "<p><b>Umumiy qarshilik </b> =
$R</p>";
?>
<form action="1.4-masala.php"
method="post">
<p>Birinchi qarshilik: <br><input
name="R1" type="text"></p>
<p>Ikkinchi qarshilik: <br><input
name="R2" type="text"></p>
<p>Uchinchi qarshilik: <br><input
name="R3" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.5-masala. Massalari M1 va M2 (kg) ga teng, oralaridagi masofa R (m) ga teng bo’lgan ikkita jismning o‘zaro tortishish kuchi F ni aniqlang. Bunda gravitatsion doimiysini $G=6{,}672\cdot10^{-11}$ ($N\cdot m^2/kg^2$) deb oling.

Yechish. Butun olam tortilish qonuniga ko‘ra $F = G\frac{m_1 \cdot m_2}{R^2}$; yerning massasi $m_1 = 5{,}97\cdot10^{24}$, oyning massasi $m_2 = 7{,}35\cdot10^{22}$, yer bilan oy orasidagi masofa $R = 3{,}844\cdot10^{8}$. Izoh. Yer bilan Oyning massalari kilogrammda, masofa mertda, kuch Nyutonda o‘lchanadi.

```
<?php
$M1 = $_POST['M1'];
$M2 = $_POST['M2'];
$R = $_POST['R'];
define ('G', '6.672*E-11');
$F = (G*$M1*$M2)/($R*$R);
echo "<p><b>O‘zaro tortishish kuchi </b>
= $F</p>";
?>
<form action="1.5-masala.php"
method="post">
<p>Birinchi massa: <br><input
name="M1" type="text"></p>
```




```
<p>Ikkinchi massa: <br><input
name="M2" type="text"></p>
<p>Oralaridagi masofa : <br><input
name="R" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

1.6-masala. Teng tomonli uchburchakning tomoni A ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

Yechish. Teng tomonli uchburchakning yuzini S bilan belgilasak, Formula o‘rinli bo‘ladi. $S = a^2 \cdot \frac{\sqrt{3}}{4}$


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$S =($a*$a)*sqrt(3)/4;
echo "<p><b>Yuzi</b> = $S </p>";
?>
<form action="1.6-masala.php"
method="post">
<p>Tomoni: <br><input name="a"
type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.7-masala. Koordinatalari X_1,Y_1 va X_2, Y_2 ga teng bo‘lgan nuqtalari orasidagi masofani hisoblang.

Yechish. Ikki nuqta orasidagi masofa $S = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2}$; formula yordamida aniqlanadi.


```
<?php
$x1 = $_POST['x1'];
$x2 = $_POST['x2'];
$y1 = $_POST['y1'];
$y2 = $_POST['y2'];
$s = sqrt(pow(($x2-$x1),2)+pow(($y2-$y1),2));
echo "<p><b>Ikki nuqta orasidagi masofa </b> =
$s</p>";
?>
<form action="1.7-masala.php" method="post">
<p>x<sub>1</sub> nuqta: <br><input
name="x1" type="text"></p>
<p>x<sub>2</sub> nuqta:  <br><input
name="x2" type="text"></p>
```



y₁ nuqta: : <input name="y1" type="text"> y₂ nuqta: : <input name="y2" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

1.8-masala. Birinchi hadi A, ayirmasi D, hadlari soni N ga teng arifmetik progressiyaning hadlarining yig‘indisini hisoblang.


Yechish. Arifmetik progressiya istalgan hadi va hadlari yig‘indisi uchun $a_n = a + d \cdot (n-1)$, $S_n = \frac{2 \cdot a + d \cdot (n-1) \cdot n}{2}$, formulalar o‘rinli bo‘ladi.

<?php $a1 = $_POST['a1']; $d = $_POST['d']; $n = $_POST['n']; $s = (2*$a1+$d*($n-1)*$n)/2; echo " Hadlari soni N ga teng arifmetik progressiyaning hadlarining yig‘indisi = $s "; ?> <form action="1.8-masala.php" method="post"> a₁ birinchi hadi: <input name="a1" type="text"> d ayirmasi: <input name="d" type="text"> n hadlari soni: <input name="n" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

1.9-masala. Birinchi hadi B, maxraji Q va hadlari soni N ga teng geometrik progressiyaning hadlarining yig‘indisini hisoblang.

Yechish. Geometrik progressiyaning istalgan hadi va hadlari yig‘indisi $b_n = b \cdot q^{n-1}$; $s_n = \frac{b \cdot q - b}{q-1}$; formula yordamida aniqlanadi.


```
<?php
$b1 = $_POST['b1'];
$q = $_POST['q'];
$n = $_POST['n'];
$s = ($b1*$q-$b1)/($q-1);
echo "<p><b>Hadlari soni N ga teng
geometrik progressiyaning hadlarining
yig‘indisi</b> = $s</p>";
?>
<form action="1.9-masala.php"
method="post">
<p>b<sub>1</sub> birinchi hadi: <br><input
name="b1" type="text"></p>
<p>q maxraji: <br><input name="q"
type="text"></p>
<p> n hadlari soni: <br><input name="n"
type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.10-masala. Uchta idishga suv solingan. Idishlardagi suvlarning temperaturasi mos ravishda T_1, T_2, T_3 ga, hajmi esa V_1, V_2, V_3 ga teng. Idishlardagi suvni bitta idishga quyilsa, uning hajmi va temperaturasi qanday bo‘ladi?

Yechish. Idishlardagi suvni bitta idishga quyilsa, suvning hajmi va temperaturasi $V = V_1 + V_2 + V_3;\ \ T = \dfrac{V_1 * T_1 + V_2 * T_2 + V_3 * T_3}{V}$ formulalar bilan aniqlanadi.

```
<?php
$T1 = $_POST['T1'];
$T2 = $_POST['T2'];
$T3 = $_POST['T3'];
$V1 = $_POST['V1'];
$V2 = $_POST['V2'];
$V3 = $_POST['V3'];
$V = $V1+$V2+$V3;
$T = ($V1*$T1+$V2*$T2+$V3*$T3)/$V;
echo "<p><b>Hajmi</b> =
$V<br><b>Temperaturasi</b> = $T</p>";
?>
<form action="1.10-masala.php"
method="post">
<p>T<sub>1</sub> birinchi temperatura:
<br><input name="T1" type="text"></p>
<p>T<sub>2</sub> ikkinchi temperatura:
```



```
<br><input name="T2" type="text"></p>
<p>T<sub>3</sub> uchinchi temperatura:
<br><input name="T3" type="text"></p>
<p>V<sub>1</sub> birinchi hajim:
<br><input name="V1" type="text"></p>
<p>V<sub>2</sub> ikkinchi hajim:
<br><input name="V2" type="text"></p>
<p>V<sub>3</sub> uchinchi hajim:
<br><input name="V3" type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

1.11-masala. Berilgan sonning butun qismini aniqlang. Yechish. A sonning butun qismini B bilan belgilasak, B=floor(A) formula bilan aniqlanadi.


```
<?php
$A = $_POST['A'];
$B=floor($A);
echo "<p><b>A sonining butun qismi</b> =
$B</p>";
?>
<form action="1.11-masala.php" method="post">
<p>A sonining butun qismi: <br><input
name="A" type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.12-masala. N/M ifodani hisoblashda hosil bo‘ladigan qoldiqni toping.

Yechish. Qoldiqni Z bilan belgilasak, u holda $Z = N - floor(\frac{N}{M}) \cdot M$ formula bilan hisoblanadi.

```
<?php
$M = $_POST['M'];
$N = $_POST['N'];
$Z=$N-floor($N/$M)*$M;
echo "<p><b>N /M sonining qoldiq qismi</b>
= $Z</p>";
?>
<form action="1.12-masala.php"
method="post">
<p>N soni: <br><input name="N" ></p>
<p>M soni: <br><input name="M" ></p>
<p><input type="submit"
```




value="Hisoblash"></p> </form>	

1.13-masala. Sonni berilgan aniqlikda yaxlitlang.

Yechish. A sonni N ta o‘nli xonalar aniqligida yaxlitlash uchun $B = \frac{Ceil(A \cdot 10^N + 0.5)}{10^N}$; formuladan foydalanamiz.

```
<?php
$A = $_POST['A'];
$N = $_POST['N'];
$B=ceil(($A*pow(10, $N ) + 0.5))/pow(10, $N);
echo "<p><b>A sonni N ta o‘nli xonalar aniqligida yaxlitlandi</b> = $B</p>";
?>
<form action="1.13-masala.php" method="post">
<p>A soni: <br><input name="A" type="text"></p>
<p>N ta o’nli xonalar soni:  <br><input name="N" type="text"></p>
<p><input type="submit" value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.14-masala. Berilgan burchakni radian o‘lchovidan gradus o‘lchoviga o‘tkazing.

Yechish. A gradusga teng burchakni radian o‘lchoviga ushbu formula yordamida o‘tkaziladi. $S = \frac{A \cdot 3{,}14159}{180}$;


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$s=($a*pi())/180;
echo "<p><b>Berilgan radian burchakning gradusdagi qiymati</b> = $s </p>";
?>
<form action="1.14-masala.php" method="post">
<p>Burchak gradusini kiriting: <br><input name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit" value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.15-masala. Berilgan burchakni gradus o‘lchovidan radian o‘lchoviga o‘tkazing.


Yechish. A radianga teng burchakni gradus o‘lchoviga o‘tkazish uchun $S = \frac{A \cdot 180}{3{,}14159}$ formulasidan foydalaniladi.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$s=($a*180)/pi();
echo "<p><b>Berilgan gradus burchakning
radiandagi qiymati</b> = $s </p>";
?>
<form action="1.15-masala.php"
method="post">
<p>Burchak radianini kiriting: <br><input
name="a" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.16-masala. Argument X ning qiymatlari berilganda $F=2(x+3)+3(x+3)^2$ funksiyaning qiymatlarini aniqlang.
Yechush. Dastur qisqaroq bo‘lishi uchun y=x+3 oraliq o‘zgaruvchi kiritamiz.

```
<?php
$x = $_POST['x'];
$F=2*($x+3)+3*pow(($x+3),2);
echo "<p><b>Funksiyaning qiymati</b> = $F
</p>";
?>
<form action="1.16-masala.php"
method="post">
<p>Argumentning qiymati: <br><input
name="x" type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.17-masala. Uzunligi L(m) ga teng matematik mayatnikning tebranish davrini hisoblang. (Hisoblash formulasi $T=2\pi\sqrt{LG}$, bunda $\pi = 3.14; G = 9.81$ (m/s^2)).


```
<?php
$L = $_POST['L'];
define ('G','9.81');
$T=2*pi()*sqrt($L*G);
echo "<p><b>Tebranish davri</b> = $T</p>";
?>
```



```
<form action="1.17-masala.php"
method="post">
<p>Uzunligini kiriting: <br><input name="L"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


1.18-masala. Aylananing uzunligi C berilgan. Shu aylana bilan chegaralangan doiraning yuzi S ni aniqlang. (Hisoblash formulasi: $S=C^2/4\pi$).

```
<?php
$C= $_POST['C'];
$s=pow($C,2)/(4*pi());
echo "<p><b>Doiraning yuzi</b> = $s</p>";
?>
<form action="1.18-masala.php" method="post">
<p>Aylananing uzunligi: <br><input name="C"
type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




1.19-masala. Radiuslari A va R ga teng (A<R) halqa yuzi hisoblansin. (Hisoblash formulasi: $S=\pi(R^2-A^2)$).

```
<?php
$A= $_POST['A'];
$R= $_POST['R'];
$S=pi()*(pow($R,2)-pow($A,2));
echo "<p><b>Halqaning yuzi</b> = $S</p>";
?>
<form action="1.19-masala.php"
method="post">
<p>Radiusi: <br>A=<input name="A"
type="text"></p>
<p>Radiusi:<br>R=<input name="R"
type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



1.20-masala. Uchburchakning A va B ikkita tomoni va ular orasidagi burchagi G (gradusda) berilgan. Uchburchakning uchinchi tomonini toping. (Hisoblash formulasi:$C=\sqrt{(A^2+B^2-2AB\cdot CosG)}$).

```
<?php
$A= $_POST['A'];
$B= $_POST['B'];
$G= $_POST['G'];
$G=($G*pi)/180;
$S=sqrt($A*$A+$B*$B-2*$A*$B*cos($G));
echo "<p><b>Uchburchakning yuzi</b> =
$S</p>";
?>
<form action="1.20-masala.php"
method="post">
<p>Uchburchak tomoni: <br>A=<input
name="A" type="text"></p>
<p>Uchburchak tomoni:<br>B=<input
name="B" type="text"></p>
<p>Gradusda:<br>G=<input name="G"
type="text"></p>
<p><input  type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



2.5. MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Topshiriq: 1) Quyidagi mantiqiy masalalarni PHP dasturlash tilida tuzing:
1-masala. A butun soni berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A soni musbat”.
2-masala. A butun soni berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A soni juft son”.
3-masala. Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A>=0 yoki B<-2”
4-masala. Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A va B sonlarning hech bo‘lmaganda bittasi toq son”.
5-masala. Ikkita butun A va B sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A va B sonlarining har ikkalasi ham yoki toq son yoki juft son”.
6-masala. Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A, B, C sonlarning hech bo‘lmaganda bittasi musbat”.
7-masala. Uchta A, B, C butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A, B, C sonlardan faqat ikkitasi musbat son”.
8-masala. Jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan uchta butun sonlarning hech bo‘lmaganda bir jufti o‘zaro qarama-qarshi”.
9-masala. Uch xonali son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Ushbu sonning raqamlari ketma - ket o‘suvchi bo‘lib joylashgan”.
10-masala. Uch xonali son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Ushbu sonning raqamlari ketma - ket o‘suvchi bo’lib joylashgan yoki kamayuvchi ketma - ketlikka ega”.
11-masala. Uch xonali son berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Ushbu sonni chapdan o‘qiganda ham, o‘ngdan o‘qiganda ham bir xil”.

12-masala. x, y sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Koordinatalari (x,y) bo‘lgan nuqta koordinata choragining to‘rtinchisida yotadi”.
13-masala. x, y sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Koordinatalari (x,y) bo‘lgan nuqta koordinata choragining ikkinchisida yoki uchunchisida yotadi”.
14-masala. x, y sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “Koordinatalari (x,y) bo’lgan nuqta koordinata choragining birinchi yoki uchunchisida yotadi”.
15-masala. a, b, c butun sonlari berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “a, b, c tomonli uchburchak teng yonli bo‘ladi”.
16-masala. a, b, c butun sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “a, b, c tomonli uchburchak to‘g‘ri burchakli”.
17-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Berilgan maydonlar bir xil rangda”.
18-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Shoh bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi”.
19-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Fil bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi”.
20-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1), (x2, y2) koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Jumlani rostlikka tekshiring: “Farzin bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi”.

Topshiriq: 2) Quyidagi chiziqli masalalarni PHP dasturlash tilida tuzing:

1.1-masala. Kvadratning tomoni a berilgan. Uning perimetri P=4*a va yuzasi $S=a^2$ ni hisoblash dasturini tuzing.
1.2-masala. Kubning yon tomoni a berilgan. Uning hajmini $V = a^3$ va to‘la sirti $S=6*a^2$ ni hisoblash dasturini tuzing.
1.3-masala. Paralelepepidning tomonlari a, b, c berilgan. Uning hajmini V = a*b*c va to‘la sirti S = 2*(a*b+b*c+a*c) ni hisoblash dasturini tuzing.
1.4-masala. Nolga teng bo'Imagan ikkita son berilgan. Ularning yig‘indisini, ko‘paytmasini va har birining modulini hisoblash dasturini tuzing.
1.5-masala. Umumiy markazga ega bo‘lgan ikkita aylana radiusi berilgan: R_1,R_2 ($R_1>R_2$).Ularnig yuzalari S_1 va S_2, ularning ayirmasi S_3 ni hisoblash dasturini tuzing. $S_1 = \pi R_1^2$, $S_2= \pi R_2^2$, $S_3 = \pi (R_1^2 - R_2^2)$.
1.6-masala. Aylananing uzunligi L berilgan. Uning radiusi R va yuzasi S ni hisoblang dasturini tuzing. $L = 2* \pi *R$, $S = \pi R^2$, $\pi = 3.14$.
1.7-masala. Aylananing yuzasi S berilgan. Uning diametri D va radiusi R ni hisoblash dasturini tuzing. $L = 2* \pi *R$ $S = \pi R^2$ $\pi = 3.14$
1.8-masala. Sonlar o‘qida A, B, C nuqtalar berilgan. AC va BC kesmalarning uzunligini va kesmalar uzunligining yig‘indisini hisoblash dasturini tuzing.
1.9-masala. Sonlar o‘qida A, B, C nuqtalar berilgan. C nuqta A va B nuqtalar orasida joylashgan. AC va BC kesmalar uzunligining ko‘paytmasini toping va dasturini tuzing.

1.10-masala. To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi uchlari koordinatlari berilgan. Uning tomonlari koordinata o‘qiga parallel. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.

1.11-masala.. Uchburchakning uchta tomoni uchlari koordinatalari berilgan: (x1,y1), (x2,y2), (x3,y3). Ikki nuqta orasidagi masofani toping dasturini tuzing.

1.12-masala. A, B va C sonlari berilgan. A ning qiymati B ga, B ning qiymati C ga va C ning qiymati A ga almashtirilsin. A, B va C ning yangi qiymatlarini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

1.13-masala. x ning qiymati berilganda $y=3x^6-6x^2-7$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

1.14-masala. x ning qiymati berilganda $y=4(x-3)^6-7(x-3)^3+2$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

1.15-masala. A soni berilgan. A ning A^2, A^3, A^5 ,A^{10}, A^{15} darajalarini aniqlovchi dastur tuzing.

1.16-masala. Temperatura T_F Farengeytda berilgan. Temperatura qiymatini T_C gradus selsiyga o‘tkazuvchi dastur tuzing: $T_C=(T_F-32)*5/9$.

1.17-masala. Temperatura T_C gradus selsiyda berilgan. Temperatura qiymatini T_F Farengeytga o‘tkazuvchi dastur tuzing: $T_C=(T_F-32)*5/9$.

1.18-masala. X kg shokolad A so‘m turadi va Y kg konfet B so‘m turadi. 1 kg shokolad 1 kg konfetdan qancha qimmat turishini aniqlovchi dastur tuzing.

1.19-masala. Qayiqning tezligi V km/soat, daryo oqimining tezligi U km/soat (V>U) Qayiqning daryo oqimi bo‘yicha xarakatlanish vaqti T1, oqimga qarshi T2 Qayiqni yurgan S yo‘lini aniqlovchi dastur tuzing.

1.20-masala. Birinchi avtomabilning tezligi V1 km/soat, ikkinchisiniki V2 km/soat, ular orasidagi masofa S km. Ular biri-biri tomonga harakatlana boshlasa T vaqtdan keyin ular orasidagi masofani aniqlaydigan dastur tuzing.

III. BOB. PHP DA TARMOQLANUVCHI OPERATORLAR

3.1. PHP DA TANLASH OPERATORI IF...ELSE VA ELSEIF


Bu operator **PHP** dasturlash tilidagi muhim operatorlardan biridir. U shartga bog‘liq ravishda kod fragmentini bajarishga mo‘ljallangan. Shart operatori boshqarishni qaysi tarmoqqa uzatishni ta’minlaydi. Shart operatorining umumiy ko`rinishi:


if (<shart>)
{
<operator1>;
}
else
{
<operator2>**;**
}

Shartli operator sintaksisi: ***if*** (<shart>) <operator1> ***else*** <operator2>. Shart **<shart>** ixtiyoriy shartli ifoda bo‘lishi mumkin. Agar u rost bo‘lsa **operator1** bajariladi. Aks xolda **operator2** bajariladi. Bu ixtiyoriy murakkablikdagi tekshirishlar ketma ketligini hosil qilishga imkon beradi. Bu ketma - ketlikda shartli operator to‘la yoki qisqa shaklda bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ***if*** va ***else*** operatorlarini bir - biriga mos qo‘yishda xatolik kelib chiqishi mumkin. Tilning sintaksisi bo‘yicha ichki joylashtirilgan shartli operatorlarda har bir **else** eng yaqin **if** ga mos keladi.

Agar **x** teng **1** va **y** teng **2** bo‘lsa ***x kichik y dan*** jumla ekranga chiqariladi, chunki ***else*** eng yaqin ***if*** *ga mos keladi*.


```
<?php
$x =$_POST['x'];
$y =$_POST['y'];
If ($x < $y)
{
echo "x kichik y dan";
}
else
{
echo "x katta y dan";
}
?>
<form action="if.php" method="post">
<p>x=<input name="x" type="text"></p>
<p>y=<input name="y" type="text"></p>
<input value="Hisoblash" type="submit">
</form>
```





Qo‘shimcha shartlarni ***elseif*** operatori yordamida tekshirish mumkin. Operator ***if*** xohlagancha ***elseif*** bloklarni o‘z ichiga olishi mumkin, lekin ***else*** har bir ***if*** operatorida bitta bo‘lishi kerak. Odatda ***if…elseif…else*** konstruktsiyalarda operator ***else*** boshqa shartlar **true** bo‘lmaganda nima qilish kerakligini aniqlaydi.Umuman elseif operatorining ishlatilishi dastur kodini o‘qishni qiyinlashtiradi, shuning uchun switch dan foydalanish maqulroq. PHP shartli operator alternativ sintaksisini ishlatishga imkon beradi. Bu xolda shartli operator qavslarsiz yozilib ***endif*** operatoridan foydalaniladi.

```
<?php
$x =$_POST['x'];
$y =$_POST['y'];
If ($x < $y)
{
echo "x kichik y dan";
}
elseif ($x==$y)
{
echo "x ga y teng";
}
else
{
echo "x katta y dan";
}
?>
<form action="elseif.php" method="post">
<p>x=<input name="x" type="text"></p>
<p>y=<input name="y" type="text"></p>
<input value="Hisoblash" type="submit">
</form>
```



3.2. PHP DA IF…ELSE OPERATORI TADBIQI

2.1-masala. $Ax^2+Bx+C=0$ kvadrat tenglamaning ildizlarini toping.
Yechish. Kiritiladigan ma'lumotlar – bu tenglama koeffitsienti: a – noma'lumning ikkinchi darajasi oldidagi koeffisient; b – noma'lumning birinchi darajasi oldidagi koeffisient; c – ozod had.
Topiladigan natija – x1 va x2 tenglama ildizlari.
Buyruqlar: Diskriminantni hisoblash formulasi: $d=b^2-4ac$
Agar diskirminant natijasi noldan katta bo’lsa, u xolda quyidagi formula bilan tenglama ildizlari topiladi:

$$x1=\frac{-b-\sqrt{d}}{2a};$$

$$x2=\frac{-b+\sqrt{d}}{2a}$$

Agar diskerminant natijasi nolga teng bo‘lsa, u xolda quyidagi formula bilan tenglama ildizlari topiladi:

$$x1 = \frac{-b}{2a}$$


Agar diskerminant natijasi noldan kichik bo’lsa, bu tenglamaning haqiqiy ildizi yo‘qligini bildiradi.

```
<?php
$a=$_POST['a'];
$b=$_POST['b'];
$c=$_POST['c'];
$d=pow($b,2)-4*$a*$c;
if ($d>0)
{
$x1=(-$b-sqrt($d))/(2*$a);
6.7-masala. n butun soni berilgan (n>0). Uni bo‘lib butun va qoldiq qismlarini aniqlash orqali, berilgan son raqamlarining orasida toq raqamlar bor yoki yo‘qligini aniqlovchi dastur tuzing.

6.8-masala. Fibonachchi soni bo‘lgan n butun soni berilgan (n>1). Fibonachchi n soni Fibonachchi ketma - ketligining nechanchi xadi ekanini aniqlovchi dastur tuzing.

6.9-masala. e haqiqiy musbat soni berilgan. Ketma - ketlik xadlari quyidagicha aniqlanadi: $a_1=2$; $a_k=2+1/a_{k-1}$; к = 2, 3, ... $|a_k - a_{k-1}|<e$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik к sonini aniqlovchi dastur tuzing. a_k va a_{k-1} ham ekranga chiqarilsin.

6.10-masala. 5 ta haqiqiy son berilgan. Ularning ko‘paytmasini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.11-masala. O‘nta haqiqiy son berilgan. Ularning o‘rta arifmetigini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.12-masala. n natural soni va n ta haqiqiy musbat son berilgan. Shu sonlarning faqat butun qismlarini va butun qismlarining yig‘indisini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.13-masala. n natural soni va n ta haqiqiy musbat son berilgan. Shu sonlarning faqat kasr qismlarini va kasr qismlarining ko‘paytmasini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.14-masala. n natural soni va n ta haqiqiy son berilgan. Shu sonlarni yaxlitlang va ekranga chiqaring. Ya‘ni butun son ko'rinishiga keltiring. Yaxlitlangan sonlar yig‘indisini chiqaring.

6.15-masala. n natural soni va n ta butun son berilgan. Faqat toq sonlarni va ularning sonini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.16-masala. n, к natural sonlari va n ta butun son berilgan. Agar shu sonlar orasida к sonidan kichik son bo‘lsa true, aks holda false chiqarilsin.

6.17-masala. k butun soni va nol soni bilan tugovchi butun sonlar to‘plami berilgan. k sonidan katta bo‘lgan birinchi son nomerini chiqaruvchi dastur tuzing. Agar bunday son bo‘lmasa nol chiqarilsin.

6.18-masala. n natural soni va n ta butun son berilgan. Bu sonlar orasidan o‘ng qo‘shnisidan kichiklarini va ularning sonini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.19-masala. n natural soni va n ta butun son berilgan. Bu sonlar orasida kamida **2** ta nol bor. Oxirgi **2** ta nol orasidagi sonlar yig‘indisini chiqaruvchi dastur tuzing.

6.20-masala. n natural soni va n ta butun son berilgan. Bu sonlar orasida kamida **2** ta nol bor. Birinchi va oxirgi nol orasidagi sonlar yig'indisini chiqaruvchi dastur tuzing.

V BOB. PHP DA FUNKSIYALAR

5.1. Funksiyalarni ta’riflash va chaqirish

PHP7 da funksiya argumenti toifalarini xususan, skalyar (tipi, o‘garuvchi) toifalarni ham ko‘rsatish imkoniyati kiritilgan. Bunda argument funksiyaga uzatilganda qiymatlar avtomatik tarzda kerakli toifaga o‘giriladi.

Funksiya **function** kalit so‘zi yordamida e’lon qilinadi. Bu kalit so‘zdan so‘ng figurali qavs ichida funksiya tanasini hosil qiluvchi har xil operatorlar yoziladi:

function* Funksiya_nomi*(int $a)
{
// operatorlar
}

Agar funksiya argumentlar qabul qilsa, ular funksiya ta’rifida o’zgaruvchilar sifatida yoziladi. **Funksiya argumenti** funksiya tanasiga keyingi amallarda qo‘llanish uchun uzatiladigan o‘zgaruvchidir. Agar funksiya bittadan ko‘p argumentga ega bo‘lsa, bu argumentlar vergul bilan ajratiladi:


function* Funksiya_nomi*(int $a, int $b, int $c)

Agar funksiya biror qiymatni qaytarsa, funksiya tanasida albatta **return** operatori mavjud bo‘lishi kerak:

function* MyFunction*()
{
***return* $ret;** *// $ret o‘zgaruvchi qiymati qaytariladi*
}


Sodda funksiyaga misol.

```
<?php
  Function ikkita_sum()
  {
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
   $sum = $a + $b;
    return $sum;
  }
  echo(ikkita_sum());
 ?>
<form action="funksiya.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Bu misolda ikki son yig‘indisini xisoblovchi funksiya ko‘rsatilgan. Bu funksiya birorta argument qabul qilmaydi, yig‘indini hisoblab natijani chiqaradi. Shundan so‘ng **echo** operatori tanasida natijani brauzerga chiqarish uchun chaqiriladi. Bu funksiyani shunday o‘zgartiramizki, qiymatni qaytarmasdan, brauzerga chiqarsin. Buning uchun **echo** operatorini funksiya tanasiga kiritish etarli:

```
<?php
  Function ikkita_sum()
  {
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
   $sum = $a + $b;
    echo "sum=$sum<br>";
  }
  ikkita_sum();
  ikkita_sum();
 ?>
<form action="funksiya1.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



$a va **$b** o‘zgaruvchilarni argument sifatida e’lon qilishimiz mumkin, bu xolda funksiya tanasida ularni tariflash talab etilmaydi.

```
<?php
  Function ikkita_sum(int $a, int $b)
  {
   $sum = $a + $b;
    echo "sum=$sum";
  }
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
  ikkita_sum($a,$b);
  ?>
<form action="funksiya2.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
```




type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

Argument orqali uzatilgan qiymatni o‘z ichiga oluvchi o‘zgaruvchi, funksiya **parametri** deyiladi.

Ko‘rilgan misollarda funksiya argumenti qiymati bo‘yicha uzatiladi, ya’ni argumentlar funksiya ichida o‘zgarib, ular funksiya tashqarisidagi qiymatlarga ta’sir qilmaydi:

```
<?php
  Function ikkita_sum(int $a)
  {
   $sum = $a + 10;
    return $sum;
  }
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
echo(ikkita_sum($a)."<br>");
echo($b);
   ?>
<form action="funksiya3.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Funksiyaga uzatilgan o‘zgaruvchilar funksiyadan chiqishda qiymatlarini saqlab qolishlari uchun, prametrlarni ilova bo‘yicha uzatish qo‘llanadi. Buning uchun o‘zgaruvchi nomi oldidan ampersand (**&**) belgisi qo‘yiladi:

***function* get_sum(*$a, $b, &$c*)**

Bu holda **$a** va **$b** o‘zgaruvchilar qiymat bo‘yicha va **$c** o‘zgaruvchi bo‘lsa ilova bo‘yicha uzatiladi. Agar argument ilova bo‘yicha uzatilsa parametr ixtiyoriy o‘zgarishida, o‘zgaruvchi argument ham o‘zgaradi:


```
<?php
  Function ikkita_sum(&$a)
  {
   $a = $a + 100;
    return $a;
  }
$a = $_POST['a'];
echo(ikkita_sum($a));
echo("<br>$a");
   ?>
<form action="funksiya4.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



5.2. O‘ZGARUVCHILARNING KO‘RINISH SOHASI


O‘zgaruvchilar funksiyalarda lokal ko‘rinish sohasiga ega. Bu shuni bildiradiki, hatto lokal va tashqi o‘zgaruvchilar bir xil nomga ega bo‘lsa ham, lokal o‘zgaruvchi o‘zgarishi tashqi o‘zgaruvchiga ta’sir qilmaydi.

```
<?php
function get_sum()
{
$a = $_POST['a']; // lokal o‘zgaruvchi
echo $a;
}
  $b = $_POST['b']; // global o‘zgaruvchi
  get_sum(); // lokal o‘zgaruvchi
  echo("<br>$b"); // global o‘zgaruvchi
?>
<form action="funksiya5.php"
method="post">
<p>lokal o‘zgaruvchi a= <input
name="a" type="text"></p>
<p>global o‘zgaruvchi b= <input
name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Lokal o‘zgaruvchini global qilish mumkin, agar uning nomi oldidan **global** kalit so‘zi ko‘rsatilsa. Agar tashqi o‘zgaruvchi **global** sifatida e’lon qilingan bo‘lsa, unga ixtiyoriy funksiyadan murojaat qilish mumkin:

```
<?php
function get_sum()
{
global $a;
$a = $_POST['a']; // lokal
o‘zgaruvchi
echo $a;
}
  $b = $_POST['b']; // global
o‘zgaruvchi
  get_sum(); // lokal o‘zgaruvchi
  echo("<br>$b"); // global
o‘zgaruvchi
?>
<form action="funksiya6.php"
method="post">
<p>lokal o‘zgaruvchi a= <input
name="a" type="text"></p>
<p>global o‘zgaruvchi b= <input
name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Global o‘zgaruvchilarga **$GLOBALS** assotsiativ massiv orqali murojaat qilish mumkin:

```
<?php
function get_sum()
{
global $a;
$a = $_POST['a']; // lokal o‘zgaruvchi
echo $a;
}
  $b = $_POST['b']; // global o‘zgaruvchi
  get_sum(); // lokal o‘zgaruvchi
  echo("<br>$b"); // global o‘zgaruvchi
?>
<form action="funksiya6.php"
method="post">
<p>lokal o‘zgaruvchi a= <input
```




name="a" type="text"> global o‘zgaruvchi b= <input name="b" type="text"> <input type="submit" value="Hisoblash"> </form>	

$GLOBALS massiviga ixtiyoriy funksiya ko‘rinish sohasida murojaat qilish mumkin va u dasturda foydalaniluvchi barcha global o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi.

O‘zgaruvchi xayot davri deb u mavjud bo‘lgan dastur bajarilish intervali tushuniladi. Lokal o‘zgaruvchilar ko‘rinish sohasi funksiya bo‘lgani uchun, ularning xayot davri ular ta’riflangan funksiya bajarilish vaqti bilan belgilanadi. Bu shuni bildiradiki, har xil funksiyalarda bir - biridan mustaqil ravishda bir xil nomli o‘zgaruvchilar ishlatilishi mumkin. Lokal o‘zgaruvchi har gal funksiya chaqirilganda yangidan initsializatsiya qilinadi, shuning uchun quyidagi misolda keltirilgan sanovchi funksiyaning qaytaruvchi qiymati har gal 1 ga teng bo‘ladi:

```
function counter()
{
  $counter = 0;
  return ++$counter;
}
```

<?php
 	
function a()
{
$a = $_POST['a'];
return ++$a;
}
echo a();
?>
<form action="funksiya8.php"
method="post">
 lokal o‘zgaruvchi a= <input
name="a" type="text">
 <input type="submit"
value="Hisoblash">
</form>
	

Lokal o‘zgaruvchi funksiya yangidan chaqirilganda oldingi qiymatini saqlab qolishi uchun uni **static** kalit so‘zi yordamida statik deb e’lon qilish mumkin:

```
function counter()
{
  static $counter = 0;
```

```
    return ++$counter;
  }
```


Statik o‘zgaruvchilarning xayot davri stsenariy bajarilish vaqtiga teng. Ya’ni agar foydalanuvchi sahifani qayta yuklasa va natijada stsenariy qaytadan bajarilsa, o‘zgaruvchi **$counter** bu holda yangidan initsializatsiya qilinadi.

5.3. Rekursiya tushunchasi

Rekursiya deb shunday konstruktsiyaga aytiladiki, funksiya o‘zini - o‘zi chaqiradi. To‘g‘ri va nisbiy rekursiya bir – biridan farqlanadi. Funksiya to‘g‘ri rekursiv deyiladi, agar tanasida o‘ziga murojaat mavjud bo‘lsa. Funksiya boshqa funksiyani chaqirsa va bu funksiya o‘z navbatida birinchi funksiyani chaqirsa, bunday funksiya nisbiy rekursiv funsiya deyiladi.

Rekursiyani qo‘llashga klassik misollar sifatida darajaga oshirish va son faktorialini hisoblash keltirish mumkin. Bu misollar rekursiyani tushuntirish qulay bo‘lgani uchun klassik hisoblanadi, lekin ular iteratsion usullarga nisbatan afzallikka ega emas.

```
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
 function degree($x,$y)
 {
  if($y)
  {
   return $x*degree($x,$y-1);
  }
  return 1;
 }
 echo(degree($x,$y)); // chiqaradi 16
?>
<form action="funksiya9.php"
method="post">
<p> x = <input name="x"
type="text"></p>
<p> y = <input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




Bu misol quyidagi qoidaga asoslangan $\mathbf{x^y}$ ekvivalent $\mathbf{x*x^{(y-1)}}$. Bu kodda $\mathbf{2^4}$ hisoblash masalasi, $\mathbf{2*2^3}$ hisoblashga keltiriladi. So‘ng $\mathbf{2*2^3}$ ni hisoblash $\mathbf{2*2^2}$ ni hisoblashga keltiriladi, toki ko‘rsatkich nolga teng bo‘lmaguncha.

Bu misolning iteratsion varianti quyidagi ko‘rinishga ega:

```
<?
```

```php
function degree($x,$y)
{
  for($result = 1; $y > 0; --$y)
  {
    $result *= $x;
  }
  return $result;
}
echo(degree(2,4)); // chiqaradi 16
?>
```

```php
<?php
$x = $_POST['x'];
$y = $_POST['y'];
 function degree(int $x, int $y)
 {
  for($result = 1; $y > 0; --$y)
  {
    $result *= $x;
  }
  return $result;
 }
 echo(degree($x,$y)); // chiqaradi 16
?>
<form action="funksiya9.php"
method="post">
<p> x = <input name="x"
type="text"></p>
<p> y = <input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Bu kodni tushunish osonligidan tashqari, u samaraliroqdir, chunki siklni bajarish funksiyani chaqirishga nisbatan tez bajariladi.

```php
<?
 function fact($x)
 {
  if ($x < 0) return 0;
  if ($x == 0) return 1;
  return $x * fact($x - 1);
 }
 echo (fact(3)); // chiqaradi 6
?>
```

Manfiy argument uchun funksiya nol qiymat qaytaradi, chunki ta’rif bo‘yicha manfiy son faktoriali mavjud emas. Parametr nolga teng bo‘lsa funksiya 1 qiymat qaytaradi, chunki 0! = 1. Boshqa xollarda xuddi shu funksiya argumenti 1 ga kamaygan xolda chaqiriladi, so‘ngra natija parametr joriy qiymatiga ko‘paytiriladi. Ya’ni quyidagi ko‘paytma hisoblanadi:

k * (k - 1) * (k - 2) * ... * 3 * 2 * 1 * 1

Rekursiv chaqirishlar ketma-ketligi faqat **fact(0)** chaqirishda uziladi. Bu chaqirish ko‘paytmadagi oxirgi 1 qiymatga keltiradi, chunki funksiyani chaqiruvchi oxirgi ifoda ko‘rinishi 1 * **fact**(1 - 1).


Iteratsion ravishda faktorialni quyidagicha hisoblash mumkin:

```
<?
 function fact($x)
 {
  for ($result = 1; $x > 1; --$x)
  {
   $result *= $x;
  }
  return $result;
 }
 echo (fact(6)); // chiqaradi 720
?>
```

5.4. FUNKSIYA TADBIQI

7.1-masala. Ihtiyoriy sonning darajasini hisoblovchi Daraja2 nomli funksiya hosil qiling. Daraja2 funksiyasi orqali a, b, c sonlarining darajasini hisoblovchi dastur tuzing.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("a sonning darajasi=".Daraja2($a));
echo("<br>b sonning
darajasi=".Daraja2($b));
echo("<br>c sonning
darajasi=".Daraja2($c));
Function Daraja2(int $a)
{
$a = $a*$a;
return $a;
}
?>
<form action="7.1-masala.php"
method="post">
```




```
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p>c= <input name="c"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

7.2-masala. Ikkita sonning o‘rta arifmetigi va geometrigini hisoblovchi o‘rta_arifmetigi_geometrigi nomli funksiya hosil qiling. o‘rta_arifmetigi_geometrigi funksiyasi orqali a, b, c, d sonlaridan (a, b), (a, c), (a, d) juftliklarining o‘rta arifmetigi va geometrigini hisoblovchi dastur tuzing.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
$d = $_POST['d'];
o‘rta_arifmetigi_geometrigi($a,$b);
o‘rta_arifmetigi_geometrigi($a,$c);
o‘rta_arifmetigi_geometrigi($a,$d);
Function o‘rta_arifmetigi_geometrigi($a,$b)
{
$p = sqrt($a*$b);
$s = ($a+$b)/2;
echo "geometrigi=$p";
echo "<br>o`rta arifmetigi=$s";

}
?>
<form action="7.2-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p>d= <input name="d" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7.3-masala. Teng tomonli uchburchakning yuzasini hisoblovchi uchburchak_yuzi nomli funksiya hosil qiling. Uchburchak_yuzi funksiyasi orqali uchta teng tomonli uchburchakning yuzini hisoblovchi dastur tuzing.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
echo("Uchburchak
yuzi=".Uchburchak_yuzi($a));
Function Uchburchak_yuzi(int $a)
{
$s=$a*$a*sqrt(3)/4;
return $s;
}
?>
<form action="7.3-masala.php"
method="post">
<p>Teng tomonli uchburchak tomoni
kiriting a= <input name="a"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.4-masala. Natural sonning raqamlar yig‘indisini hisoblovchi raqamlar_yig‘indisi nomli funksiya hosil qiling. Bu funksiya orqali a, b, c sonlarining yig‘indisini hisoblovchi dastur tuzing.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("a sonning raqamlar
yig‘indisi=".raqamlar_yig‘indisi($a));
echo("<br>b sonning raqamlar
yig‘indisi=".raqamlar_yig‘indisi($b));
echo("<br>c sonning raqamlar
yig‘indisi=".raqamlar_yig‘indisi($c));
Function raqamlar_yig‘indisi(int $n)
{
$s=0;
for ($i =1; $i <=$n; $i++)
$s=$s+$i;
return $s;
}
?>
<form action="7.4-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
```



```
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


7.5-masala. Butun musbat sonning raqamlarini teskari tartibda chiqaruvchi teskari_tartibda nomli funksiya hosil qiling. Bu funksiya orqali a, b, c sonlarining raqamlarini teskari tartibda chiqaruvchi dastur tuzing.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("<br>".teskari_tartibda($a));
echo("<br>".teskari_tartibda($b));
echo(teskari_tartibda($c));
Function teskari_tartibda(int $n)
{
while($n>0)
{
$i=$n%10;
$n=floor($n/10);
echo "$i";
}
}
?>
<form action="7.5-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.6-masala. Kiritilgan K butun musbat sonining chap tarafiga (boshiga) R raqamini (1<=R<=9) qo‘shuvchi RQo‘shish nomli funksiya hosil qiling.


```
<?php
$k = $_POST['K'];
$r = $_POST['R'];
if ((1<=$r)and($r<=9))
{
Rqoshish(int $k, int $r);
}
```



```
else
{
echo "R ni 1 va 9 oraliqda kiriting!";
}
Function Rqoshish($son,$raqam)
{
$Raqamlar_soni=0;
$x=$son;
while($x>0)
{
$x=floor($x/10);
$Raqamlar_soni++;
}
$son=$son+$raqam*pow(10,$Raqamlar_son
i);
echo $son;
}
?>
<form action="7.6-masala.php"
method="post">
<p>K= <input name="K" type="text"></p>
<p>R= <input name="R" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

7.7-masala. Ikkita sonning qiymatini almashtiruvchi almashtirish nomli funksiya hosil qiling. Almashtirish funksiyasi orqali A. B, C, D sonlaridan (A, B), (D, C) juftliklarining qiymatlarini almashtiruvchi dastur tuzing.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
$d = $_POST['d'];
echo("<br>".almashtirish($a,$b));
echo("<br>".almashtirish($d,$c));
Function almashtirish(int $x, int $k)
{
$y=$x;
$x=$k;
$k=$y;
echo"$x<br>";
echo"$k";
}
```



```
?>
<form action="7.7-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a"
type="text"></p>
<p>b= <input name="b"
type="text"></p>
<p>c= <input name="c"
type="text"></p>
<p>d= <input name="d"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


7.8-masala. X va Y sonlaridan kichigini X ga va kattasini Y ga yozuvchi Minmax(X,Y) funksiyasini hosil qiling. Minmax funksiyasini 4 marta chaqirish orqali a. b, c, d butun sonlaridan kattasini va kichigini aniqlovchi dastur tuzing.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
$d = $_POST['d'];
echo("<br>".Minmax($a,$b));
echo("<br>".Minmax($c,$d));
Function Minmax(int $x, int $y)
{
$min=min($x,$y);
$max=max($x,$y);
echo"minimum=$min<br>";
echo"maxsimum=$max";
}
?>
<form action="7.8-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p>d=<input name="d" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7.9-masala. a, b, c sonlarini o‘sish tartibida joylashtiruvchi O‘sish_tartibi(a, b, c) funksiyasini hosil qiling. Ya‘ni a, в, c sonlari qiymatlarini shunday almashtiringki, natijada a ning qiymati eng kichik va c ning qiymati eng katta bo‘lsin. Bu funksiya orqali (a1, b1, c1) va (a2, b2, c2) sonlarini tartiblang.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("a sonning darajasi=".Daraja2($a));
echo("<br>b sonning
darajasi=".Daraja2($b));
echo("<br>c sonning
darajasi=".Daraja2($c));
Function Daraja2(int $a)
{
$a = $a*$a;
return $a;
}
?>
<form action="7.1-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.10-masala. O‘ngga siklik siljishni amalga oshiruvchi O‘nga_siljish(A, B, C) funksiyasini hosil qiling. Ya‘ni A ning qiymati B ga, B ning qiymati C ga, C ning qiymati A ga o‘tib qolsin. Bu funksiya orqali (A1, B1, C1) va (A2. B2, C2) sonlarini siljiting.


```
<?php
$a1 = $_POST['a1'];
$b1 = $_POST['b1'];
$c1 = $_POST['c1'];
$a2 = $_POST['a2'];
$b2 = $_POST['b2'];
$c2 = $_POST['c2'];
O‘nga_siljish($a1,$b1,$c1);
O‘nga_siljish($a2,$b2,$c2);
Function O‘nga_siljish(int $a,int $b,int $c)
{
```



```
$k=$c;
$c=$b;
$b=$a;
$a=$k;
echo "$a<br>$b<br>$c<br>";
}
?>
<form action="7.10-masala.php"
method="post">
<p>a1= <input name="a1" type="text"></p>
<p>b1= <input name="b1" type="text"></p>
<p>c1= <input name="c1" type="text"></p>
<p>a2= <input name="a2" type="text"></p>
<p>b2= <input name="b2" type="text"></p>
<p>c2= <input name="c2" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


7.11-masala. Haqiqiy sonning ishorasini aniqlovchi ishora nomli funksiya hosil qiling. Funksiya argumenti noldan kichik bo‘lsa -1; noldan katta bo‘lsa 1; nolga teng bo‘lsa 0 qiymat qaytarsin. Haqiqiy a va b sonlari uchun ishora(a) + ishora(b) ifodasi hisoblansin.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("a sonning darajasi=".Daraja2($a));
echo("b sonning darajasi=".Daraja2($b));
echo("c sonning darajasi=".Daraja2($c));
Function Daraja2(int $a)
{
$a = $a*$a;
return $a;
}
?>
<form action="7.1-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7.12-masala. Kvadrat tenglamaning ildizlari sonini aniqlovchi funksiya hosil qiling. a * x^2 + b * x + c =0 ko‘rinishidagi tenglama kvadrat tenglama deyiladi. (a noldan farqli son)

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
Kvadrat_tenglama($a,$b,$c);
Function Kvadrat_tenglama(int $a, int $b,int
$c)
{
if ($a<>0)
{
$d=pow($b,2)-4*$a*$c;
if ($d>0)
{
$x1=($b-sqrt($d))/2*$a;
$x2=($b+sqrt($d))/2*$a;
echo "x1=$x1<br>x2=$x2";
}
elseif($d=0)
{
$x1=$b/2*$a;
echo "x1=$x1";
}
else
echo "yechim mavjud emas dis 0 dan kichik";
}
else echo "a sonni 0 dan farqli son kiriting!";
}
?>
<form action="7.12-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7.13-masala. Doiraning yuzini hisoblovchi funksiya hosil qiling. Bu funksiya yordamida 3 ta doira yuzini hisoblang. Doiraning yuzi $S = \pi R^2$ formula orqali hisoblanadi. $\pi = 3.1415$ ni o‘zgarmas deb qabul qiling.

```
<?php
$a = $_POST['r1'];
$b = $_POST['r2'];
$c = $_POST['r3'];
echo("r sonning
darajasi=".Doiraning_yuzini($a));
echo("<br>r sonning
darajasi=".Doiraning_yuzini($b));
echo("<br>r sonning
darajasi=".Doiraning_yuzini($c));
Function Doiraning_yuzini(int $r)
{
$S = pi()*pow($r,2);
return $S;
}
?>
<form action="7.13-masala.php"
method="post">
<p>r1= <input name="r1" type="text"></p>
<p>r2= <input name="r2" type="text"></p>
<p>r3= <input name="r3" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.14-masala. Markazi bir nuqtada bo‘lgan, R1 va R2 radiusga ega 2 ta aylananing ustma - ust tushmaydigan (kesishmaydigan) qismining yuzasini topuvchi RingS nomli funksiya hosil qiling. Doiraning yuzini hisoblash formulasidan foydalaning. $S = \pi R^2$, $\pi = 3.1415$ ni o‘zgarmas deb qabul qiling.


```
<?php
$a = $_POST['r1'];
$b = $_POST['r2'];
echo("aylanalar keshishmaydigan qismlari
yuzasi=".RingS($a,$b));
Function RingS(int $a, int $b)
{
$S =abs(pi()*pow($a,2)-pi()*pow($b,2));
return $S;
}
?>
<form action="7.14-masala.php"
method="post">
<p>r1= <input name="r1"
```



```
type="text"></p>
<p>r2= <input name="r2"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


7.15-masala. To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari a va b berilganda. uning perimetrini hisoblovchi TriangleP nomli funksiya hosil qiling.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
echo("To`gri burchakli uchburchakning
peremetri=".TriangleP($a,$b));
Function TriangleP(int $a, int $b)
{
$p =$a+$b+sqrt(pow($a,2)+pow($b,2));
return $p;
}
?>
<form action="7.15-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.16-masala. A va B sonlari orasidagi sonlar yig‘indisini hisoblovchi SumRange(A,B) nomli funksiya hosil qiling. Agar A>B bo‘lsa. funksiya 0 qiymat qaytaradi. Bu funksiya orqali A dan B gacha va B dan C gacha bo‘lgan sonlar yig‘inddisini hisoblang, A, B, C butun sonlar.


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$c = $_POST['c'];
echo("A va B orasidagi sonlar yig‘indisi
=".SumRange($a,$b)."<br>");
echo("B va C orasidagi sonlar yig‘indisi
=".SumRange($b,$c));
Function SumRange(int $x,int $y)
{
$S=0;
```



```
while ($x<=$y)
{
$S+=$x;
$x++;
}
return $S;
}
?>
<form action="7.16-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>c= <input name="c" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

7.17-masala. Arifmetik amallarni bajaruvchi Calc(A, B, Op) funksiyasini hosil qiling. A va B haqiqiy sonlar. Op o‘zgaruchisi orqali bajariladigan arifmetik amal aniqlanadi. 1 - ayirish, 2 - ko‘paytirish, 3 - bo‘lish, boshqalari qo‘shish. Shu funksiya orqali A va B sonlari uchun N1, N2, N3, N4 amallari bajarilsin. (N1 - N4 butun sonlar)


```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
$n1 = $_POST['n1'];
$n2 = $_POST['n2'];
$n3 = $_POST['n3'];
$n4 = $_POST['n4'];
echo("A va B sonlar ayirmasi
=".Calc($a,$b,$n1)."<br>");
echo("A va B sonlar ko‘paytmasi
=".Calc($a,$b,$n2)."<br>");
echo("A va B sonlar bo‘linmasi
=".Calc($a,$b,$n3)."<br>");
echo("A va B sonlar yig‘indisi
=".Calc($a,$b,$n4));
Function Calc(int $a,int $b,int $op)
{
switch($op)
{
case 1: $S=$a-$b; break;
case 2: $S=$a*$b; break;
case 3: $S=$a/$b; break;
```



```
case 4: $S=$a+$b; break;
}
return $S;
}
?>
<form action="7.17-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p>N1= <input name="n1" type="text"></p>
<p>N2= <input name="n2" type="text"></p>
<p>N3= <input name="n3" type="text"></p>
<p>N4= <input name="n4" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```


7.18-masala. Butun sonning juft yoki toqligini aniqlovchi Even(K) funksiyasini hosil qiling. Funksiya K juft son bo‘lsa - true, aks holda false qiymat qaytarsin. Bu funksiya orqali 2 ta sonning juft yoki toqligi aniqlansin.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
if (Even($a))
echo "$a son juft qiymati true<br>";
else
echo "$a son toq qiymati false<br>";
if (Even($b))
echo "$b son juft qiymati true";
else
echo "$b son toq qiymati false";
Function Even(int $k)
{
return ($k%2==0);
}
?>
<form action="7.18-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




7.19-masala. IsSquare(K) mantiqiy funksiyasini hosil qiling, (K>0). Agar K biror butun sonning kvadrati bo‘lsa - true, aks holda false qiymat qaytarilsin. Shu funksiya orqali 2 ta sonni tekshiring.

```
<?php
$a = $_POST['a'];
$b = $_POST['b'];
if (IsSquare($a))
echo "$a sonning kvadrati qiymati
true<br>";
else
echo "$a sonning kvadrati emas qiymati
false<br>";
if (IsSquare($b))
echo "$b sonning kvadrati qiymati true";
else
echo "$b sonning kvadrati emas qiymati
false";
Function IsSquare(int $k)
{
$ildiz=sqrt($k);
if ($ildiz*$ildiz == $k)
return true;
else
return false;
}
?>
<form action="7.19-masala.php"
method="post">
<p>a= <input name="a" type="text"></p>
<p>b= <input name="b" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



7.20-masala. Butun qiymat qaytaruvchi DigitN(K,N) funksiyasini hosil qiling, (K>0). Funksiya K sonining N - raqamini qaytarsin. Agar K soni raqamlari N dan kichk bo‘lsa. minus bir qaytarilsin. Shu funksiya orqali K1, K2. K3 sonlarining N - raqami aniqlansin.

```
<?php
$n = $_POST['n'];
$k1 = $_POST['k1'];
$k2 = $_POST['k2'];
$k3 = $_POST['k3'];
echo("K sonining N - raqamini qaytargan soni
=".DigitN($k1,$n)."<br>");
echo("K sonining N - raqamini qaytargan soni
=".DigitN($k1,$n)."<br>");
echo("K sonining N - raqamini qaytargan soni
=".DigitN($k3,$n));
Function DigitCount(int $K)
{
$soni=0;
while($K>0)
{
$soni++;
$K/=10;
}
return $soni;
}
Function DigitN($K,$N)
{
$soni=DigitCount($K);
if ($soni<$N)
return -1;
if ($i==$N)
return ($K%10);
else
$K/=10;
}
?>
<form action="7.20-masala.php"
method="post">
<p>n= <input name="a" type="text"></p>
<p>K1= <input name="k1" type="text"></p>
<p>K2= <input name="k2" type="text"></p>
<p>K3= <input name="k3" type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



5.5. MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLARI

7.1-masala. Ihtiyoriy sonning 3 - darajasini hisoblovchi PowerA3 nomli funksiya hosil qiling. PowerA3 funksiyasi orqali A, B, C haqiqiy sonlarining va D, E butun sonlarining 3 - darajasini hisoblovchi dasturini tuzing.
7.2-masala. Ihtiyoriy sonning 2, 3, 4 - darajasini hisoblovchi PowerA234 nomli funksiya hosil qiling. PowerA234 funksiyasi orqali A, B, C haqiqiy sonlarining 2, 3, 4 - darajasini hisoblovchi dasturini tuzing. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: PowerA234(float . float *, float *, float *);
7.3-masala. 2 ta sonning o‘rta arifmetigi va goemetrigini hisoblovchi MEAN nomli funksiya hosil qiling. MEAN funksiyasi orqali A, B, C, D sonlaridan (A. B), (A. C), (A. D) juftliklarining o'rta arifmetigi va geometrigini hisoblovchi dasturni tuzing.
Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: MEAN(float, float . float *, float *);
7.4-masala. Teng tomonli 3 burchakning yuzasi va perimetrini hisoblovchi Triangle nomli funksiya hosil qiling. Triangle funksiyasi orqali 3 ta teng tomonli uchburchakning perimetri va yuzini hisoblovchi dasturni tuzing. Triangle(float, float *, float *);
7.5-masala. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini va perimetrini uning qarama - qarshi uchlari koordinatasi orqali hisoblovchi RectPS nomli funksiya hosil qiling. (x1,y1,x2,y2) to‘g‘ri to‘rtburchakning qarama - qarshi uchlari. RectPS funksiyasi orqali 2 ta to‘rtburchak yuzi va perimetrini hisoblang. To‘rtburchak tomonlari koordinatalar o‘qiga parallel. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: RectPS(int, int, int *, int *);
7.6-masala. Natural sonning raqamlari soni va raqamlari yig‘indisini hisoblovchi DigitCountSum nomli funksiya hosil qiling. Bu funksiya orqali a, b, c sonlarining raqamlari soni va yig‘indisini hisoblovchi dasturni tuzing. DigitCountSum **(**int, int ***,** int ***);**
7.7-masala. Butun musbat sonining raqamlarini teskari tartibda chiqaruvchi InvertDigit nomli funksiya hosil qiling. Bu funksiya orqali a, b, c sonlarining raqamlarini teskari tartibda chiqaruvchi dasturni tuzing. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: InvertDigit **(int**);
7.8-masala. Kiritilgan K butun musbat sonining o‘ng tarafiga (oxiriga) R raqamini (1<=R<=9) qo‘shuvchi AddRightDigit nomli funksiya hosil qiling. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: AddRightDigit **(int** son, **int** raqam);
7.9-masala. Kiritilgan K butun musbat sonining chap tarafiga (boshiga) R raqamini (1<=R<=9) qo‘shuvchi AddLeftDigit nomli funksiya hosil qiling. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: AddLeftDigit **(int** *son, **int** raqam);
7.10-masala. Ikkita sonning qiymatini almashtiruvchi Swap nomli funksiya hosil qiling. Swap funksiyasi orqali A, B, C, D sonlaridan (A, B), (D, C) juftliklarining qiymatlarini almashtiruvchi dasturini tuzing. Funksiya prototipi quyidagicha bo‘lishi mumkin: Swap **(int *, int *);**
7.11-masala. X va Y sonlaridan kichigini X ga va kattasini Y ga yozuvchi Minmax(X, Y) funksiyasini hosil qiling. Minmax funksiyagini 4 marta chaqarish orqali a. b, c, d butun sonlaridan kattasini va kichigini aniqlovchi dasturni tuzing.

7.12-masala. A. B. C sonlarini o‘sish tartibida joylashtiruvchi Sortlnc3(A, B, C) funksiyasini hosil qiling. Ya’ni A. B. C sonlari qiymatlarini shunday almashtiringki, natijada A ning qiymati eng kichik va C ning qiymati eng katta bo‘lsin. Bu funksiya orqali (A1, B1, C1) va (A2, B2, C2) sonlarini tartiblang.

7.13-masala. A, B, C sonlarini kamayish tartibida joylashtiruvchi SortDec3(A, B, C) funksiyasini hosil qiling. Ya’ni A. B, C sonlari qiymatlarini shunday almashtiringki, natijada A ning qiymati eng katta va C ning qiymati eng kichik bo‘lsin. Bu funksiya orqali (A1, B1, C1) va (A2, B2, C2) sonlarini tartiblang.

7.14-masala. O‘ngga siklik siljishni amalga oshiruvchi ShiftRight3(A. B. C) funksiyasini hosil qiling. Ya’ni A ning qiymati B ga, B ning qiymati C ga, C ning qiymati A ga o‘tib qolsin. Bu funksiya orqali (A1, B1, C1) va (A2. B2, C2) sonlarini siljiting.

7.15-masala. Chapga siklik siljishni amalga oshiruvchi ShiftLeft3(A, B, C) funksiyasini hosil qiling. Ya’ni C ning qiymati B ga, B ning qiymati A ga, A ning qiymati C ga o‘tib qolsin. Bu funksiya orqali (A1, B1, C1) va (A2, B2, C2) sonlarini siljiting.

7.16-masala. Haqiqiy sonning ishorasini aniqlovchi ishora nomli funksiya hosil qiling. Funksiya argumenti noldan kichik bo'lsa -1; noldan katta bo‘lsa 1; nolga teng bo‘lsa 0 qiymat qaytarsin. Haqiqiy a va b sonlari uchun ishora(a)+ishora(b) ifodasi hisoblansin.

7.17-masala. Kvadrat tenglamaning ildizlar sonini aniqlovchi funksiya hosil qiling. $a * x^2 + b * x + c = 0$ ko‘rinishidagi tenglama kvadrat tenglama deyiladi. (a noldan farqli son) dasturini tuzing.

7.18-masala. Doiraning yuzini hisoblovchi funksiya hosil qiling. Bu funksiya yordamida 3 ta doira yuzini hisoblang. Doiraning yuzi $S = \pi * R^2$ orqali hisoblanadi, π=3.1415 ni o‘zgarmas deb qabul qiling.

7.19-masala. Markazi bir nuqtada bo‘lgan, R1 va R2 radiusga ega 2 ta aylananing ustma - ust tushmaydigan (kesishmaydigan) qismining yuzasini topuvchi RingS nomli funksiya hosil qiling. Doiraning yuzini hisoblash formulasidan foydalaning. $S = \pi * R^2$, π = 3.1415 ni o‘zgarmas deb qabul qiling.


7.20-masala. To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari A va B berilganda, uning perimetrini hisoblovchi TriangleP nomli funksiya hosil qiling.

VI. BOB. PHP DA MATNLAR BILAN ISHLASH

6.1 SIMVOLLARNI TAQQOSLASH


PHP7 tili bir qator tuzilgan funktsiyalarni o‘z ichiga oladi, ular ikkita matnli satrlarni taqqoslashga imkon beradi. Ushbu sodda strcmp() funktsiya taqqoslash uchun ikkita satrli argumentni qabul qiladi va olingan natijaga qarab uchta butun sonli qiymatlardan biriga qaytadi. Agar satrlar aniqligi aynan mos tushsa, strcmp() funktsiya 0 qiymatga qaytadi. Agar birinchi satr argumenti ikkinchisidan katta bo‘lsa, strcmp() funktsiya 1 qiymatga agar kichik bo‘lsa, u holda -1 qiymatga qaytadi. Qat’iy qilib aytganda, strcmp() funktsiya qaytadigan qiymat butun musbat son, nol yoki butun manfiy sondan iborat bo‘lishi mumkin, ko‘pincha, ushbu qiymatlar 1,0 yoki -1 dan iborat bo‘ladi. Strncmp() funktsiya ham xuddi shu tariqa ishlaydi, ammo, u uchinchi butun sonli argumentni qabul qiladi, hamda taqqoslash uchun satr boshidan nechta simvol olinayotganligini ko‘rsatishga imkon beradi. So‘ngra satrlarni taqqoslash uchun ushbu ko‘rsatmani qo‘shamiz:

```
<?php
$matn1 = $_POST['x'];
$matn2 = $_POST['y'];
 if (strcmp($matn1,$matn2)==0)
print "strcmp 0 ga teng";
?>
<form action="matn1.php"
method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Matn kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Strcmp() va strncmp() funktsiyalar satrlardagi simvollar registrini (qayd etilishini) inobatga oladi, ya’ni, satrlarni taqqoslashda bosh harflar va kichik harflar o‘rnini aniqlaydi. strncmp – ikkilik formadagi berilganlar uchun xavfsiz bo‘lgan satrning dastlabki n ta simvolining registrni e’tiborga olmasdan taqqoslaydi.


```
<?php
$matn1 = $_POST['x'];
$matn2 = $_POST['y'];
$s1=strncmp($matn1,$matn2,10);
echo "strncmp=$s1";
?>
<form action="strncmp.php"
method="post">
```



```
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Matn kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```

Agar registrni hisobga olish zarurati bo‘lmasa, u holda alternativ (muqobil) funktsiyalar strcasecmp() va strncasecmp() dan foydalanish mumkin. Endi taqqoslanadigan simvollar registr (qaydi) ni inobatga olmaydigan ko‘rsatmani qo‘shamiz. strnatcasecmp – algoritmdan foydalangan holda registrni hisobga olmasdan satrlar taqqoslanadi.


```
<?php
$matn1 = $_POST['x'];
$matn2 = $_POST['y'];
$s=strcasecmp($matn1,$matn2);
 print "strcasecmp $s ga teng";
?>
<form action="matn2.php" method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Matn kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Har bir simvol ASC II – standart kodiga ega. ASC II – ushbu qisqartma so‘z American Standard Code for Information Interchange (Ma’lumotlar almashinish bo‘yicha Amerika standarti) inglizcha so‘zining birinchi harflaridan olingan u simvollarni kodlashtirishning universal sxemasi bo‘lib, shu sohadagi standartni (andozani) belgilaydi. Ixtiyoriy simvolning ACS II – kodini aniqlash uchun simvolni ord() PHP – funktsiyaning argumenti sifatida beradi. Satr harflari “a” dan “z” gacha, 97-122 qiymatlari orasida, bosh harflar “A”-“Z” esa 65-90 gacha bo‘lgan qiymatlar orasida joylashgan. Har bir oraliqdagi birinchi qiymatlarni taqqoslab ko‘rish mumkinki, satr harf “a” (97), bosh harf “A” (65) ga qaraganda kattaroq kodga ega. Shu sababli, uni strcmp() funktsiyani argument ko‘rinishiga keltirsak, strcmp() funktsiya 1 ni qaytaradi, chunki birinchi argumentning qiymati ikkinchisinikidan katta. Boshqa tomondan, argument “A” (65) ni birinchi argument sifatida “a” (97) ni esa ikkinchi argument sifatida ko‘rsatsak u holda strcmp() funktsiya -1 ni qaytaradi, chunki birinchi argumentning qiymati ikkinchisinikidan kichik. Satrlarni taqqoslashda har bir simvol ketma – ketligidagi o‘rni bo‘yicha taqqoslanadi, bunda aynan bir simvolni saqlovchi satrlar, turli tartibda joylashgan bo‘lsa, ularning

xatoliklari teng bo‘lib qolmasligini kafolatlaydi. Masalan, “ABC” va “BAC” satrlarni taqqoslashda, birinchi satrning birinchi simvoli “A” (65), ikkinchi satrning birinchisimvoli “B” (66) ga qaraganda kichik bo‘ladi, shu sababli, strcmp() funktsiya -1 ni qaytaradi, chunki birinchi argument ikkinchisidan kichik.


```
<?php
$belgi1 = $_POST['x'];
$s=ord($belgi1);
 print "Bu belgi ASC II jadvaldagi
qiymati $s ga teng";
?>
<form action="matn3.php"
method="post">
<p> Belgi kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Eslatib o‘tish lozimki, ASC II – kodning umumiy hajmi uchun simvollarning joylashishi tartibining ahamiyati yo‘q: turli tartibli so‘zlar (yoki harflar) bilan yozilgan ikkita satr kod hajmi bo‘yicha ekvivalent bo‘ladi, ammo, bir – biriga mos tushmasligi mumkin.

Satr uzunligini esa strlen() PHP – funktsiyaning argumenti sifatida ko‘rsatish orqali aniqlash mumkin.

```
<?php
$belgi1 = $_POST['x'];
$s=strlen($belgi1);
 print "Bu matnning uzunligining
qiymati $s ga teng";
?>
<form action="strlen.php"
method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




6.2 MATNNI IZLASH

PHP tilida bir nechta tuzilgan funktsiyalar mavjud bo‘lib, ular satrlar ichidagi ma’lum qismiy satrni yoki alohida simvollarni izlashga imkon beradi. Ushbu sodda funktsiya strpos() ikkita argumentni qabul qiladi, ular o‘z navbatiga izlanishi lozim bo‘lgan satrni va izlanayotgan qism satrni ko‘rsatadi. Izlash satr boshidan to mos


tushgan simvolni topguncha ketma – ket amalga oshiriladi. Agar mos tushush aniqlansa, izlash to‘xtaydi va strpos() funktsiya butun sonni qaytaradi, u satrdagi simvol indeksidan iborat bo‘lib, birinchi mos tushushni aniqlaydi. Agar mos tushush aniqlanmasa, strpos() funktsiya false qiymatni qaytaradi.

```
<?php
$matn = $_POST['x'];
$belgi = $_POST['y'];
$s=strpos($matn,$belgi);
 print "Bu matnning izlanayotgan belgi $s
ga teng";
?>
<form action="strpos.php"
method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Belgi kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



strrpos() funktsiya ham xuddi shu tariqa ishlaydi. Ammo, satrning oxiridan teskari tartibda izlashda simvol indeksini qaytaradi.

```
<?php
$matn = $_POST['x'];
$belgi = $_POST['y'];
$s=strrpos($matn,$belgi);
 print "Bu matnning izlanayotgan belgi $s
ga teng";
?>
<form action="strrpos.php"
method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Belgi kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```




PHP7 dagi boshqa izlovchi funktsiyalar izlaniyotgan satrning bir qismini qaytarish imkonini beradi, u mos tushgan simvol o‘rnining sonli indeksini aniqlamaydi.

Strstr() funktsiya ikkita argumentni qabul qiladi, ulardan biri izlanishi lozim bo‘lgan satrni va ikkinchisi esa qism satrni ko‘rsatadi. Izlash satr boshidan boshlab ketma – ket to mos tushish kuzatilguncha amalga oshiriladi. Mos tushush aniqlangan zahotiyoq izlash tuxtatiladi va strstr() funktsiya izlaniyotgan satrning qolgan qismini qaytaradi, undan birinchi mos tushish boshlangan bo‘ladi. Agarda mos tushish aniqlanmasa strstr() funktsiya 0 ni qaytaradi.


Shuni e’tiborga olish lozimki, strstr() funktsiyada teskari tartibda izlash (xuddi strrpos() funktsiyadagidek) mavjud emas.

```
<?php
$matn = $_POST['x'];
$belgi = $_POST['y'];
$s=strstr($matn,$belgi);
 print "Birinchi kirishda aniqlangan
qism satr $s ga teng";
?>
<form action="strstr.php"
method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Belgi kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Agar simvollar registri qiymatga ega bo‘lmasa, PHP tilida stristr() funktsiyani qo‘llash mumkin, bu funktsiya registrni inobatga olmasdan izlashga imkon beradi. Bu funktsiyaning bajarilishi natijasida izlanayotgan satrning birinchi mos tushish boshlangan joyigacha bo‘lgan qismi registrni hisobga olmagan holda qaytariladi.


```
<?php
$matn = $_POST['x'];
$belgi = $_POST['y'];
$s=stristr($matn,$belgi);
 print "Birinchi kirishda aniqlangan qism satr
$s ga teng";
?>
<form action="stristr.php" method="post">
<p> Matn kiriting<input name="x"
type="text"></p>
<p> Belgi kiriting<input name="y"
type="text"></p>
<p><input type="submit"
value="Hisoblash"></p>
</form>
```



Strchr() funktsiya ham xuddi shunday ishlaydi, ammo, u ikkita argumentga ega bo‘ladi, ular izlanishi lozim bo‘lgan satrni va bitta izlanayotgan simvolni ko‘rsatadi. Strrchr() funktsiya satr oxiridan boshlab, teskari tartibda izlashni amalga oshiradi har ikkala funktsiya ham birinchi mos tushish boshlangan satrning izlanayotgan qismini qaytarishni bajaradi.


